

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

**AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI**

TASVIRIY SAN'AT VA MEHNAT TA'LIMI FAKULTETI

MEHNAT TA'LIMI KAFEDRASI

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**MAVZU: O'quvchilarni kasbga yo'llashda axborot texnologiyalaridan
foydalanish metodikasi**

BAJARGAN:

Sh. Qodirov

RAHBAR:

f-m.f.f.d. (PhD), doc. A.Uteniyazov

KAFEDRA MUDIRI:

t.f.d. doc.B. Dauletmuratov

NUKUS-2021

REJA

KIRISH

I. BOB. UMUMIY O'RTA TA'LIMDA O'QUVCHILARNI KASB TANLASHGA YO'LLASH JARAYONINING NAZARIY ASOSLARI

- 1.1. O'quvchilarni kasb tanlashga yo'llash jarayonining ilmiy metodik muammosini ishlanganlik darajasi
- 1.2. O'quvchilarning kasbiy layoqat, moyillik, qiziqish va qobiliyatlarini aniqlash metodlari

II. BOB. UMUMIY O'RTA TA'LIMDA O'QUVCHILARNI KASB HUNARGA YO'NALTIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH METODIKASI

- 2.1. Umumiy o'rta ta'limda o'quvchilarni kasb tanlashga yo'naltirishda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining ahamiyati
- 2.2. Texnologiya fani fanining kasb tanlashga yo'llash bo'limini o'qitish metodikasi

III. BOB. TAJRIBA-SINOV ISHLARINI TASHKIL ETISH VA UNING NATIJALARI TAHLILI

- 3.1. Tajriba-sinov ishlarining mazmuni va o'tkazish metodikasi
- 3.2. Tajriba-sinov ishlarini natijalari va tahlili

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

ILOVALAR

Kirish

a) O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan ta'lim tarbiya haqidagi qonun va farmoyishlar.

Mamlakatimizda ta'lim sohasida bo'layotgan o'zgarishlar, ya'ni qabul qilingan qonun va farmoyishlar jamiyatimiz ravnaqiga ijobiy ta'sir qilishi shubhasizdir. Ayniqsa, mamlakatning intellektual salohiyatini oshirishni, etuk, jaxon standarti talablariga javob bera oladigan kadrlar etkazib berishda muxim omil xisoblanadi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining ikkinchi sifat bosqichida ta'lim tizimi samaradorligini oshirish, to'plangan ilgor tajriba va tahlillardan kelib chiqib, dastur goyalari va qoidalari, shuningdek, me'yoriy-huquqiy hujjatlarni takomillashtirib borish ko'zda tutilgan.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida texnologiya fani darslarini tashkil etish jarayonida o'quvchilarni mehnatga tayyorlashda eng muhim vazifalardan biri sifatida avvalo uni erkin fikrlovchi, ijodkor shaxs sifatida shakllantirish muammosi hal etilishi lozim bo'ladi. O'quvchilarni tarbiyalashda erkin fikrlovchi, mustaqil shaxsni shakllantirishning umumiy asoslari keng miqyosda tadqiq qilingan va ko'plab natijalar qo'lga kiritilgan. Biroq, bunday ishlarning aksariyat qismi muammoning umumiy jihatlariga qaratilgan bo'lib, respublikamizda amalga oshirilayotgan ta'lim islohoti talablariga to'la javob bera olmaydi.

Ta'lim islohotlarining hozirgi bosqichida erkin fikrlovchi shaxsni tarbiyalash muammosi alohida dolzarblik kasb etmoqda. Bu boradagi milliy ta'lim modelimizning asosiy g'oyasi va mazmuni «Ta'lim to'g'risida»gi qonun hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da o'z ifodasini topgan.

b) Bitiruv malakaviy ish mavzusining dolzarbligi.

Ta'lim muassasalarida kasb tanlash jarayonida o'quvchilarni tarbiyalash jarayonida o'quvchilar ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishga oid vazifalarning hal etilishida o'qituvchi shaxsi, uning kasbiy mahorati markaziy o'ringa ega. Islohotlar natijasida maktablarning yangi sharoitlarda ishlashga o'tishi o'qituvchi faoliyatiga, uning kasbiy-pedagogik tayyorgarligi mazmuni va darajasiga, o'z bilimlarini

takomillashtirib borishiga yuqori talablar qoymoqda. Chunonchi, o'tgan davrlarda fan o'qituvchisi mehnatining samaradorligi talim metodlarini takomillashtirib borishi bilan belgilangan bo'lsa, hozirgi kunda talim jarayonida axborot kommunikacion texnologiyalardan keng foydalanish orqali o'quvchini barkamol shaxs darajasida tarbiyalashda, kasb-hunarga yo'naltirish ishlari bilan bog'lab tashkil etishi talab qilinadi.

Yuqoridagilarni nazarda tutgan holda, bitiruv malakaviy ishimiz mavzusini «O'quvchilarni kasbga yo'llashda axborot texnologiyalaridan foydalanish metodikasi» deb nomladik.

Bitiruv malakaviy ish maqsadi: Texnologiya fani kasbga yo'naltirish darslarida o'quvchilarni axborot kommunikacion texnologiyalardan keng foydalanish orqali kasbga qiziqishlari va faolligini oshirish metodikasini ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ish ob'ekti: Umumiy o'rta ta'lim maktablarida texnologiya fani jarayoni.

Bitiruv malakaviy ishini bajarish uchun quyidagi vazifalarni belgilab oldik:

- umumiy o'rta ta'lim maktablarida texnologiya fani darslarini AKT dan foydalangan holda tashkil etish;
- texnologiya fani darslarini tashkil etishda kasbga yo'naltirish darslarida zamonaviy usullardan foydalanish;
- texnologiya fani darslarini tashkil etishda kasb-hunarga yo'naltirish darslarini tashkil etish metodikasini ishlab chiqish;
- texnologiya fani darslarini tashkil etishda kasbga yo'naltirish darslarini tashkil etishda axborot kommunikacion texnologiyalardan foydalanish metod va shakllarini ishlab chiqish;
- umumiy o'rta ta'lim maktablarida Kasbga yo'naltirish boyicha o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash mezonlarini ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishi kirish, 3 bob, 6 band, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar royxati va ilovalardan iborat. Bitiruv malakaviy ishi 67 bet hajmda bayon etilgan, 22 nomdagi foydalanilgan adabiyotlar va manbalar ro'yxatini o'z ichiga olgan.

V) Bitiruv malakaviy ish mavzusini yoritishda foydalanilgan adabiyotlar tahlili.

Karimov I.A. "Barkamol avlod- O'zbekiston taraqqiyotining poydevori", T:, "O'zbekiston". 1997y. Ushbu adabiyotda mustaqilliq davrigacha ta'lim tizimidagi kamchiliklar va muammolar tahlil qilingan bo'lib uni hal qilish yo'llari batafsil yoritib berilgan. Shu bilan birga O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" to'liq o'z aksini topgan.

Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" T: "Ma'naviyat", 2008y. Ushbu kitobda Prezidentimiz odamzod uchun xamma zamonlarda xam eng buyuk boylik bo'lib kelgan ma'naviyatning ma'no mazmuni uning inson va jamiyat xayotidagi o'rni va ahamiyati, bu murakkab va serqirra tushunchaning nazariy va amaliy tomonlari xar tomonlama keng qamrovli fikr va xulosalar orqali taxlil yetiladi. Ayni paytda istiqlool yillarida yurtimizda milliy ma'naviyatimizni tiklash, uni zamon talablari asosida rivojlanish bo'yicha amalga oshirilayotgan ulkan ishlar, bu borada oldimizda turgan maqsad va vazifalar xaqida atroflicha fikr yuritilgan.

SH.S.Sharipov, K.Davlatov, G.S.Nasriddinova. Kasbga yo'naltirishning ilmiy-pedagogik asoslari. O'quv qo'llanma. –Toshkent, 2007. 146 b. Mazkur o'quv qo'llanmada talabalarda umumiy o'rta ta'lim maktabi hamda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'quvchilarini kasbga yo'naltirishga muvaffaqiyatli rahbarlik qilish bo'yicha zarur bilim va ko'nikmalarni shakllantirish bo'yicha tavsiyalar berilgan. O'quv qo'llanma asosan texnologiya fani metodikasi mutaxassisligi bo'yicha tahsil olayotgan talabalarga mo'ljallangan bo'lib, shuningdek undan amaliyotchi o'qituvchilar, kasbga yo'naltirish muammolari bilan ilmiy izlanuvchilar va psixologlar ham foydalanishlari mumkin.

Sh.S.Sharipov. Kasb – hunar ta'limi tizimida o'quvchilar ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishning uzluksizligi. Toshkent "Fan" 2005 y. 129 b.

Ushbu monografiyada ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish, ijodiy barkomol shaxs modeli, texnologiya fani uzluksizligi kasb – hunar ta'limining mustahkam negizi turli xil badiiy buyumlar tayyorlash to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

Muslimov.NA, Mullaxmetov.R.G. Kasb tanlashga yo'llash o'quv qo'llanma Toshkent. 2007 – 159 b. Ushbu o'quv qo'llanmada oliy o'quv yurtlari talabalariga kasb tanlash jarayoni, kasb tanlashga yo'llash tizimi, umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarini kasb tanlashga yo'llash, kasblar klassifikatsiyasi, kasb tanlashni rejalashtirish, kasb tanlashga yo'llashning bugungi kundagi holati, kasb tanlashga yo'llash bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash tizimi, bo'lajak o'qituvchilarni kasbga moslashishning pedagogik psixologik shart-sharoitlari va kasb tanlashga yo'llash jarayonida yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash masalalarni yoritib berilgan.

Magzumov P.T. O'quvchilarni mehnatga va kasb tanlashga tayyorlash. T.: O'qituvchi, 1991. - 206 b. Texnologiya fani va kasb ta'limining muhim sohalaridan hisoblangan kasb tanlash, kasblarga havas uyg'otish, kasblarga yo'naltirish, o'quvchilarni kasb tanlash ishlari bo'yicha darsdan, maktabdan tashqari ishlarni olib borish, kasbiy axborotlar uyushtirish, o'quvchilarni kasb-hunarga tayyorlash hamda tadqiq etish Magzumov P.T. ishlarida yoritilgan. Uning «O'quvchilarni darsdan va maktabdan tashqari ishlari» nomli monografiyasida kecha, to'garak, sayohat, uchrashuv kabilarni tashkil etish, o'tkazish yo'llari batafsil bayon etilgan.

Davlatov K. Mehnat va kasb ta'limi tarbiyasi hamda kasb tanlash nazariyasi va metodikasi. – T.: «O'qituvchi», 1992. Ushbu o'quv adabiyotida mehnat va kasb ta'limi metodologiyasi, tamoyillari, mazmuni, shakl va metodlari yoritilgan. Ilovalar asosan talabalarning mustaqil ishlari mazmuni bayon qilingan.

Ishmuhammedov R., Abduqodirov A., Pardayev A muallifligidagi Ta'limda innovatsion texnologiyalar. -T.: O'qituvchi, 2011. -189 b. Ushbu qo'llanmada keltirilgan pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda

o'tkaziladigan mashg'ulot jarayoni uslubiyatini har bir professor – o'qituvchi o'zi o'qitayotgan fani va predmetining mazmuni, maqsadi, shuningdek, sharoiti, o'quvchilarning imkoniyati va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda o'zgartirishi yoki o'qitish jarayonida keltirilgan texnologiyalar asosida o'zining mualliflik texnologiyalarini yaratishi va ulardan foydalanishi mumkin.

I. BOB. UMUMIY O'RTA TA'LIMDA O'QUVCHILARNI KASB TANLASHGA YO'LLASH JARAYONINING NAZARIY ASOSLARI

1.1. O'quvchilarni kasb tanlashga yo'llash jarayonining ilmiy metodik muammosini ishlanganlik darajasi

Zardushtiylarning muqaddas kitobi «Avesto»da ham mehnat ta'lim-tarbiya masalalariga katta ahamiyat berilgan. Unda: «tarbiya xayotining eng muxim tirligi, tayanchi bo'lib hisoblanishi lozim. Har bir yoshni shunday tarbiyalash lozimki, u avval yaxshi o'qishni, keyin esa yozishni o'rganish bilan eng yuksak pog'onaga ko'tarilsin» deyilgan.

Imom al-Buxoriyning tarbiya xaqidagi qarashlarida jaxolat kishiga o'lim keltiruvchi fojia sifatida qoralanadi. U odamlarni to'g'ri so'zli bo'lishga, va'daga vafo qilishga da'vat etib, munofiq kishining uchta belgisini ko'rsatadi, ular yolg'on gapirish, va'daga vafo qilmaslik va omonatga xiyonat qilishdan iboratligini aytgan Imom al-Buxoriyning ta'lim-tarbiya xususidagi ta'limotida axloqiy qarashlar muxim o'rin tutadi. Uning uqtirishcha, baland tovush bilan o'rinsiz ko'p qulish boshqalar diliga ozor beruvchi xislatdir. U o'z ta'limotida bilim o'rganish, uni o'rgatish yullari va usullari masalasiga ham aloxida e'tibor bergan. Tarbiya kishilik jamiyati ibtidosida paydo bo'lgan va inson manfaatlari uchun xizmat qilib kelgan. Kattalar o'zlari turmush jarayonida ortirgan tajribalarini o'zidan keyingi ayollarga o'rgatib berganlar.

O'tmishda ta'lim-tarbiya qanday bo'lganligi, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sharoitlarning o'zgarishi tufayli pedagogik g'oyalar, tarbiya ishlarining mazmuni,

usullarining yangilanib borganligini, o'tmishda ijod etgan olimlar: Abu Nasr Farobiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Maxmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Xojib, Umar Hayyom, Az-Zamahshariy va boshqa olimlarning pedagogik qarashlari, faoliyatlari natijasidan bilim olish mumkin.

Bugungi kun talabi asosida Avesto, Qur'oni Karim, Xodislarda aks etgan pedagogik g'oyalarni ilmiy-metodik jihatdan ochib berilmog' zarur.

Imom al-Buxoriyning tarbiya xaqidagi qarashlarida jaxolat kishiga o'lim keltiruvchi fojea sifatida qoralanadi. U odamlarni to'g'ri so'zli bo'lishga, va'daga vafo qilishga da'vat etib, munofiq kishining uchta belgisini ko'rsatadi, ular yolg'on gapirish, va'daga vafo qilmaslik va omonatga xiyonat qilishdan iboratligini aytgan Imom al-Buxoriyning ta'lim-tarbiya xususidagi ta'limotida axloqiy qarashlar muxim o'rin tutadi.

Yoshlarimizni tarbiyalash ularga kasb-hunar o'rgatish uchun birinchi galda buyuk mutafakkirlarining duru-javhariga teng ma'naviy meroslari misol bo'lla oladi. Abu Nasr Farobiy, Axmad Yassaviy, Baxouddin Naqshbandiy, Imom al-Buxoriy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Al-Xorazmiy, Al-Farg'oniy, Firdavsiy, Amir Temur, Navoiy va Bobur singari jahonga taniqli va shular singari boshqa aql egalarining ijtimoiy-siyosiy, falsafiy ta'limotlariga tayanib ish ko'rilsa tarbiya ta'sirchanligi yanada mukammallik kasb etadi.

O'rta asr ijtimoiy-falsafiy fikr taraqqiyoti mutafakkir Abu Nasr Farobiy nomi bilan bog'liq bo'lib uning inson kamoloti haqidagi ta'limoti ta'lim-tarbiya sohasida katta ahamiyatga ega. Mashhur Yunon faylasufi Arastotel keyin o'z bilimi, fikr dorasining kengligi bilan nom chiqargan yirik mutafakkir Farobiyni «muallim ussoniy» («ikkinchi muallim») deb ataydilar. Farobiy o'z asarlarida ta'lim-tarbiyaning muximligi, o'qituvchi kasb-hunari, unda nimalarga e'tibor berish zarurligi, ta'lim-tarbiya berish usullari haqida fikr yuritadi.

«Fozil odamlar shahri», «Baxt va saodatga erishuv to'g'risida», «Ilmning kelib chiqishi», «Aql ma'nolari to'g'risida» kabi asarlarida kasb-hunar qilish asosida ijtimoiy-tarbiyaviy qarashlari o'z ifodasini topgan.

Mashhur bo'lgan allomalardan biri Abu Ali ibn Sinodir. Ibn Sino bolalarni maktabda o'qitish zarurligini qayd etar ekan, ta'lim-tarbiyada quyidagi tamoyillarga rioya qilish zarurligini ta'kidlaydi.

- yoshlarga ta'lim berishda birdaniga kitobga band qilib qo'ymaslik;
- ta'limda yengildan og'irga borish orqali bilim berish;
- olib boriladigan mashqlar bolalar yoshiga mos bo'lishi;
- jamoa bo'lib maktabda o'qishga e'tibor berish;
- bilim berishda bolalarning mayli, qiziqishi va qobiliyatini xisobga olish;
- o'qishni jismoniy mashqlar bilan qo'shib olib borish.

Ta'lim-tarbiya, pedagogika fani tarixini bilmasdan o'qituvchilik qilish mumkin emas.

Eskini o'zlashtirgan va yangini tushunishga qodir insongina tarbiyachi bo'la oladi deb ta'kidlagan Konfusiy.

Buyuk chex pedagogi **Y.A.Komenskiy** «Kishilik jamiyati ishlarini yaxshilash haqida hammaga talluqli maslahat» nomli 7 jildli katta asar yozdi (U hayot ekanligi vaqtida hammasi bo'lib 2 jildi bosilib chiqdi, qolgan jildlari esa faqat 1935 yilda topildi va Chexoslovakiyada chop qilindi). Bu asarida «Hammani va hamma narsada har tomonlama tuzatish»ning insonparvarlik va demokratik dasturini belgilab chiqdi va kishilik jamiyatini isloh qilish rejasini ilgari surdi.

«Buyuk didaktika» asarida «pan sofiya g'oyasini» (*pan* gerkcha — butun, hamma, *sofiya* — donolik, aqllilik) hamma narsani bilish, hamma uchun bilim berish» demakdir. Pan sofiyada u tabiat va jamiyat bilimlarining yig'indisini beradi. Maktab — bu muassasa, u yerda «Hammani har narsaga o'rgatmoq kerak» degan fikr ko'p marta takrorlanishini ko'ramiz.

Komenskiy o'z asarlarida tarbiyaning maqsadini ko'rsatadi. Tarbiyaning maqsadi kishini manguilik dunyosiga tayyorlashdan iboratdir. Buni uch xil tarbiya orqali amalga oshirish mumkin:

1. Aqliy tarbiy.
2. Axloqiy tarbiy.
3. Diniy tarbiy.

Bu maqsad bolaning tug'ilganidan to 24 yoshigacha amalga oshadi, bu davr ichida bola to'rt maktabni o'qib tugatishi, har birida 6 yil o'qishi kerak, deb hisoblaydi.

K.D.Ushinskiyning pedagogika nazariyasi xalqchilik g'oyasi asosida qurilgandir. «Har bir mamlakatda bolalarni tarbiyalash tizimi,— deb aytgan edi u, xalqning rivojlanish sharoitlari, uning ehtiyoj va talablari bilan belgilangan». «Hamma uchun umumiy bo'lgan birgina tug'ma moyillik borki, tarbiya hamisha shunga tayanishi mumkin; bu biz xalqchilik deb atagan narsadir. Xalqning o'zi tomonidan yaratilgan va xalqchilik asosiga qurilgan tarbiya shunday tarbiyaviy kuchga egaki, bunday kuch abstrakt g'oyalarga asoslangan yoki boshqa xalqlardan olingan eng yaxshi tizimlarda ham yo'qdir»

Ushinskiy xalqchilik deb har bir xalqning o'ziga xosligini tushunar ediki, bu o'ziga xoslik o'sha xalq yashashi va mehnat qilishi lozim bo'lgan tarixiy taraqqiyot, geografik va tabiiy sharoitlar bilan ifodalanadi.

Uning fikricha «agar tarbiya kishini baxtli qilmoqchi bo'lsa, uni baxt uchun tarbiyalamaslik kerak, balki hayotdagi mehnat uchun tayyorlashi lozim». Tarbiya kishida mehnatga muhabbat va odatni o'stirish kerak. Ushinskiy kishi o'z faoliyatida jismoniy mehnat bilan aqliy mehnatni birlashtirsa, juda foydali bo'lur edi, deb hisoblaydi. U o'quvchilar mehnati haqida gapirib, «O'qish mehnatdir va mehnat bo'lib qolishi, ammo to'la ma'noli mehnat bo'lishi lozim», — deydi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan dastlabki yillaridanoq yoshlarni kasb tanlashga yo'naltirish masalalariga katta e'tibor berildi. K.D. Davlatov, N.N.Shodiev, P.T.Magzumov, A.R.Xujaboev, A.SH.Magdiev va

boshqalar o'quvchilarni kasbga yo'naltirishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish bilan shug'ullandilar.

Vatanimiz pedagog olimlari A.R.Xodjaboyev, M.O.Ochilov, N.S.Sayidahmedov, N.Shodiyev, P.T.Magzumov, O.H.Hayitov, U.N.Nishonaliyev, E.T.Choriyev, N.A.Muslimov, R.G.Mullaxmetov va boshqalar tomonidan yoshlarni kasbga yo'naltirish, bo'lajak o'qituvchilarni amaliy-pedagogik faoliyatning turli sohalari, jumladan, talabalar ijodiy faoliyatini samarali boshqarish muammolari yoritib berilgan.

Bugungi milliy istiqlol mafkurasi yoshlar ongida sog'lom insoniy va milliy xislatlarni shakillantirish g'oyasini kun tartibiga qoygan ekan, bu jarayonga jumhuriyatimiz pedagog – olimlari o'zlarining katta hissalarini qo'shmoqda.

1.2 . O'quvchilarning kasbiy layoqat, moyillik, qiziqish va qobiliyatlarini aniqlash metodlari

Ma'lumki, xalqimiz qadimdan yosh avlod tarbiyasi, xususan yoshlarni mehnatga tayyorlash, ularga hunar o'rgatishga alohida e'tibor berib keladi. Buni hunar-hunardan unar, yigit kishiga qirq hunar oz kabi maqollarimizda ham ko'rishimiz mumkin.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng bu sohaga e'tibor yanada kuchaydi. Yangi turdagi ta'lim, jumladan maktabdagi texnologiya fani va uni negizida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirib, kasb-hunar maktablarda o'qishni davom ettirishga tayyorlash uchun kasb-hunar ta'limi muassasalari tashkil etilishi jadallashtirilmoqda. Ularni o'z ishining ustasi bo'lgan, erkin fikrlaydigan barkamol shaxs tarbiyasi jamiyatimizning ustivor vazifalari sirasiga kiritilmoqda, zero aynan shunday yoshlar davlatimizning buyuk kelajagini bunyod eta oladi.

Bugungi kunda har bir insonning kasblar olamida o'z o'rnini topishi, kasbiy o'zligini anglashi, jamiyatda o'z o'rnini topishga intilishi va unga qiziqishi kun sayin ortib bormoqda. Minglab kasblar ichida qaysi birini tanlash, shaxsning unga moyilligi, layoqati va qiziqishlarining mos kelishi yoki kelmasligini bilish, shaxs

istiqbolida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada bolalarga qiziqtirgan kasblar haqida ko'plab ma'lumotlarni maktabgacha ta'lim muassasalarida kasb olami haqidagi dastlabki tushunchalar, boshlang'ich mehnat ko'nikmalari o'yinlar orqali beriladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida kasb-hunarga yo'naltirish ishlari 1-9 sinflarda uzluksiz tarzda o'quvchilarga ta'lim berish, shaxsning psixologik-pedagogik tashxisi asosida amalga oshiriladi. Bu jarayonni kasbga yo'naltiruvchi texnologiya fani o'qituvchilari, mutaxassislar, psixologlar, asosiy fan o'qituvchilari va sinf rahbarlari amalga oshiradilar. Kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik hududiy tashxis markazlari bu ishlarni muvofiqlashtiradi hamda metodik rahbarlik qiladi. har bir umumiy o'rta ta'lim maktablarida har yili tuziladigan va maktab direktorii rahbarlik qiladigan kasb-hunarga yo'naltirish komissiyalari faoliyat ko'rsatadilar. Komissiyalar bitiruvchilarga tanlagan akademik litsey va kasb-hunar maktablarining tayyorlov yo'nalishlariga yakuniy xulosalar asosida tavsiyanomalar beradi. Kasb-hunarga yo'naltirishning ayrim elementlari o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tahlili va oliy ta'lim muassasalarida, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining bo'linmalarida, mudofaa vazirligi va oliy ta'limdan keyingli ta'lim muassasalarida hamda maktab bitiruvchilarini akademik litsey, KHM va oliy ta'lim muassasalarida o'qishni davom ettirishi, korxonalarda ishlashida kasb tanlash ishlari ham amalga oshirilishi chuqur va kengaytirish holatlari davom etadi.

Mamlakatda kasbga yo'naltirish yaxlit tizimi asta-sekin shaklanmoqda. Mazkur yagona tizim xozirgi holatida maktab, akademik litsey, kasb-hunar maktabi, kasb-hunarga yo'naltirish markazlari, yoshlar ijtimoiy harakati, oliy o'quv yurtlari, bandlik xizmatining tegishli davlat tuzilmalari, mulkchilik shaklidan qat'iy nazar korxona va muassasalar o'z tarkibiy tuzilmalarida hamda ularning o'rtasidagi ikki tomonlama va ko'p tomonlama hamkorlik faoliyatlarni bugungi kunda mavjud meyoriy-huquqiy hujjatlar zaminida – o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish borasidagi ishlarni asta-sekin tashkil etmoqdalar.

Bu borada qayd etilgan o'quv muassasalar, korxona va tashkilotlarni tegishli kadrlar bilan ta'minlash, ayniqsa: psixologlar, kasbiy maslahatchilar, psixofiziologlar, sotsiologlar va boshqalarni tayyorlashni ko'paytirish hisobiga shakllantiriladi.

Buni inobatga olgan holatda pedagogik institut va universitetlarda tayyorlanayotgan texnologiya fani va kasb-hunar o'qituvchilarini o'quv rejalarida bo'lajak o'qituvchilar faoliyatida – "O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish" kursining o'qitish metodikasiga e'tibor katta.

O'quvchilarni – bo'lajak kasbini ongli ravishda tanlashi, tanlagan kasbi yuzasidan to'la axborot va ma'lumotlarga ega bo'lishi uchun 8-9 sinflarning ikkinchi yarmida "kasb-hunarga yo'naltirish" kursida yetarli materiallar kiritilgan hamda ularni to'la hajmida o'zlashtirishga xos imkoniyatlarni yaratilishi ko'zda tutilgan.

Shunday qilib, o'quvchilarni 5-7 sinflarida tanlangan texnologiya fani zaminida o'zlashtirgan bilim-ko'nikmalari, umumta'lim fanlari asosida kasblar to'g'risidagi bilib olgan axborotlar hamda maktab va maktabdan tashqari tizimlardagi dars va ommaviy mashg'ulotlarda kasblar to'g'risida olayotgan ma'lumotlar – ularga ongli ravishda aniq bir kasbni tanlashga olib keladi.

Shuni inobatga olgan holda, 9 - sinfda – maktab tizimida olib borilgan kasb tanlash ishlarini, 9 - sinflarda esa, kasb tanlashga xos tashkiliy-ommaviy va hamkorlik tadbirlarini olib borilishi rejalangan. Ular yuzasidan quyidagi o'quv-mavzu rejalar ishlab chiqilgan.

Mavzular tezis holatda yoritilgani uchun, ularni qo'shimcha materillar, sxema va boshqa ma'lumotlarni har tomonlama o'rganishga yo'naltirilgan. Unga kasb tanlashga xos pedagogik-psixologik va metodik materiallarni qo'shimcha manbalardan foydalanib to'ldiring, boyiting, chuqurlashtiring va kengaytiring. Qo'shimcha materiallardan ko'pincha hududiy, mahalliy va ilg'or tajribalar yuzasidan ma'lumotlarga e'tiborni kuchaytiring. Mavzuga taaluqli xududiy akademik litsey va kasb-hunar maktablar faoliyatlarini o'quv-tarbiya ishlarini,

kasblarga yo'naltirilgan materiallarni kengroq qilib ifodalang. Azkur mavzularni o'quvchilar mustaqil holatda o'zlashtirishga alohida e'tibor bering. O'quvchilar o'zlashtirayotgan materiallarni tizim yoki model holatiga keltirishga ko'proq e'tiborni yo'naltiring. Bu borada, o'quvchilarni o'quv materiallarini o'zlashtirish jarayonlarida ko'rsatayotgan harakatlarini quyidagicha yo'naltiring:

- 1) mavzuga xos materiallarni to'plash, tahlil etish, xulosa chiqarish;
- 2) turli manbalardan qo'shimcha materiallarni izlash va ularni aosiy materiallar bilan uyg'unlashtirish, kengaytirish va boyitish;
- 3) mavzuni mustaqil ravishda o'zlashtirish jarayonida mavjud bo'lgan muammolarni aniqlash, ularni yechish holatini aniqlash hamda muammolarni bartaraf etish tadbirlarini belgilab olish;
- 4) agar mavzuni o'zlashtirish jarayonini tajribaga qo'yish va uni o'tkazish usullari bilan maqsadga erishishni talab etsa, demak, mazkur usullardan unumli foydalanishga alohida e'tibor berish zarur;
- 5) mazkur mavzularni ayrimlarini tadqiqot usullari bilan o'zlashtirish metodikaini aniqlab hamda uni amalda tadbqiq etish.

Shunday qilib, mazkur to'plamda kasbga yo'naltirish masalalarini o'quvchilar, asosan, mustaqil ravishda o'zlashtirishlariga qaratilgan. Shu bilan birga quyidagi mavzulardan birini tanlab pedagogika, psixologiya va kasb tanlash bilan uyg'unlashtirilgan holda ifodalashni tavsiya etiladi:

1. Referat ishi mavzusini g'oyasiga binoan quyidagi shakllarda ishlab chiqiladi:

- loyihalar tayyorlash;
- modellar ishlab chiqish;
- takomillashtirilgan dasturlar;
- dasturilamal rejalar va hako-zolar.

2. Referat ishini himoya natijasidan kelib chiqqan holda komissiya qaroriga binoan amalga tadbqiq etish uchun viloyat rahbarlariga tegishli tavsiyalar beriladi.

3. Referat ishini to'la amalga tadbiq etilishiga qarab tinglovchi-xodimni tegishli mahalliy tashkilotlar rahbariyati tomonidan moddiy va ma'naviy taqdirlash masalalari qo'yiladi. Bitiruv ishi yuzasidan kafedradan tayinlangan ilmiy rahbar sizga amaliy yordam ko'rsatadi.

Referat ishiga tavsiya etilgan mavzular:

I. Kasb-hunar ta'limi dolzarb muammolari:

1. Kasb-hunarga yo'naltirilgan pedagogikasining dolzarb muammolari;
2. Kasb-hunarga yo'naltirilgan pedagogik jarayonni optimallashtirish;
3. Muammoli ta'lim;
4. Qo'shimcha darslar;
5. O'quv jarayonidagi ishchi o'yinlar;
6. O'quvchilarni o'quv-ishlab chiqarish jarayonida faolligini oshirish;
7. Pedagogik mehnat ilg'orlarining tashkiliy-metodik tizimining asoslari;
8. Tayanch konspektlarni tuzish metodikasi;
9. Pedagogik tajriba va g'oyalar;
10. Pedagogning ilmiy laboratoriyasi;
11. Pedagogik tajriba va ijodkorlik;
12. Pedagogik mahorat;
13. Pedagogik faoliyatda mantiq;
14. Pedagog etikasi;
15. Pedagogikada notiqlik san'ati;

II. Kasb-hunarga yo'naltirish psixologiyasining dolzarb muammolari:

1. Kasb-hunar ta'limi psixologiyasi;
2. Jamoaning psixologik muammolari;
3. Pedagog obro'ining shakllanishi;
4. O'quvchilarning psixologik xususiyatlari;
5. O'quvchilarning bilish va qiziqishlarini shakllantirish;
6. Shaxsning hissiy-irodaviy tavsifi;
7. Xotira va uni rivojlantirish yo'llari;

8. Muloqotning psixologik xususiyatlari;
9. Diqqat va uning o'quv-ishlab chiqarish faoliyatidagi roli;
10. Fikrlash, tasavvur, ta'lim jarayonida ularni rivojlantirish;
11. O'quvchilarni kasb tanlashga tayyorlashning psixologik asoslari.

III. Kasb tanlashning dolzarb muammolari:

1. Kasb tanlashning ijtimoiy asoslari;
2. Kasb tanlashning iqtisodiy asoslari;
3. Kasb tanlashning psixologik asoslari;
4. Kasb tanlashning tibbiy asoslari;
5. Kasb tanlashning fiziologik asoslari;
6. Kasb tanlashning yuridik asoslari;
7. Kasb tanlashning pedagogik asoslari;
8. Kasb tanlashning tarbiyaviy asoslari;
9. Gumanitar predmetlardan kasb tanlash asoslari;
10. Fizik-matematik predmetlardan kasb tanlash asoslari;
11. Biolog-fiziolog predmetlardan kasb tanlash asoslari;
12. Texnologiya fanidan kasb tanlash asoslari.

Shunday qilib, maktab tizimidagi hamda texnologiya fani negizidagi kasb tanlashni hamda maktabdagi sinf va sinfdan tashqari ishlarda o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish asoslarini muntazam ravishda olib borishi ishlab chiqildi, tadbiq etilishi belgilandi, mezon va darajalari keltirildi.

Keltirilgan materiallar turli shaklda, hajmda va holatlarda keltirilmoqda. O'qituvchilar ulardan axborot, ma'lumot, tavsiya, qayta ishlab chiqish, maqola, risola va magistrlik BMI qo'llanishi uchun taqdim etilmoqda. Taqdim etilgan materiallar: rasmiy hujjatlardan, risola, maqolalar va boshqa manbalardan olingan.

Bu borada o'qituvchilar o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha umumiy o'rta ta'lim maktablari direktori, amaliyotchi psixologi, kasb-hunarga yo'naltiruvchi, sinf rahbarlarining asosiy vazifalarini kasb tanlash ishlari bilan

uyg'unlashtirib olib borishlarini tashkiliy va ilmiy-pedagogik asoslarini taxlil qilishlari lozim.

O'quvchilarning kasbiy layoqat, moyillik, qiziqish hamda qobiliyatlarni hisobga olinmasa quyidagi kamchiliklarni keltirib chiqarish mumkin:

O'qituvchining kasb-hunar tanlashda uning qobiliyati qizishi xisobga olinmasligi.

O'qituvchining kasb-hunarni tanlashdan uning aniq kasbga bo'lgan qiziqishi qobiliyati salomatligi va boshqa omillari har tomonlama o'rganilmaydi, natijada o'quvchining shaxsiy mayli qiziqishiga emas balki o'qituvchining o'quv rejasiga asoslanib umumiy kasb tanlashga xos o'qishga turli mazmundagi tarbiyaviy tadbirlarda ishtirok etishga madaniy-axloqiy ishlarni tashkil etish va o'tkazishga majburan jalb etiladiganga o'xshab ketadi. Bunday tabiiy xolat oqibatida har ikkala shaxsda (o'qituvchi o'quvchi) ham kasb tanlash ishlarda faollik tashabbuskorlik ijodkorlik yo'qoladi.

O'qituvchining o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish talim-tarbiyaviy ishini aniq va ijodiy rejalashtirmasligi.

Bu sabab texnologiya fanining yagona o'quv rejasi tarbiyasiga qo'yilgan talabning bir xilligi hamda ota-kasb va ustoz-shogird tizimlaridagi kasb manaviyatiga e'tiborsiz qarash natijasidir. Natijada o'qituvchi dars jarayonida reja va dasturdan kelib chiqib o'quvchini mehnat va kasb tanlashini manaviy shakllantirish imkoniyatlarining didaktik adabiyotlarga boy manaviy merosimiz durdonalariga diniy manbalarga o'lkashunoslik materiallariga tayangan holda ta'limining tarbiyaviy tomoniga aloxida e'tibor bermaydi. O'qituvchi dasturga yoki darslikka suyanib qolmasligi o'quvchilarning qiziqish va o'z imkoniyatlariga qarab tanlanlangan kasbiga ota –kasb va ustoz - shogird talablariga tayanib ish olib bormasligi. O'quvchi diqqatini, qalbini, ongi va foliyatini zabt eta olmaydigan xohlagan kasbini tanlashgan voz kechish ularning manaviy extiyojini qondira olmaydigan mohir ustalar va mutaxassislar ijodi va foliyatini ijodiy o'rganishdan uzoqligi salbiy ta'sir qiladi.

O'qituvchilarning mehnat jarayonida va ularni kasb-hunarga yo'naltirish yuzasidan talim va tarbiyadagi uzviy birlikning yo'qligi.

Mazkur yo'nalishdagi kamchiliklar shu bilan izoxlanadiki texnologiya fanining dars jarayonida uning tarbiya va kasb-hunarga yo'naltirish qonuniyatlari undagi tarbiya jarayonini tashkil etishda talim qonunyatlariga yetarlicha e'tibor qilinmaydi. Texnologiya fani dars jarayonida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish o'quv materiallari vositasida to'plangan bilim malaka va ko'nikmalar ijtimoiy foydali madaniy faoliyat jarayonida qo'llanilmaydi. Darsdan va ta'lim muassasasidan tashqari ish sifatida tashkil etilmaydi uning natijalari darsda o'quvchilarning bilim faoliyatini kasb tanlashning foydashtirish uchun foydalanilmaydi.

Eng asosiy o'qituvchilarni kasb-hunarga yo'llash ta'limini tarbiyaviy xarakteriga e'tiborning nihoyatda pastligi hisoblanadi. Respublikamizdagi fan o'qituvchilari ish tajribalarini o'rganish natijasida aniqlanganki aksariyat o'qituvchi va ustozlar talimning tarbiyaviy jarayoni tashkil etishdan iborat deb bo'lmaydilar degan xulosaga keldilar.

Talimning tarbiyaviy xarakterini amalga oshirish uchun tarbiya qonunyatlarini o'quvchilarni kasb hunarga yo'llash talim qonuniyatlarini negiziga sindirib yuborish xar bir mavzuni o'rganishda asosiy maqsad puxta bilim berish emas balki har tomonlama voyaga yetgan o'quvchi shaxsni shakllantirishdan iborat bo'lmog'i ko'zda tutilishi kerak.

Har bir maktab O'zbekistonda migratsiya vazifasini hisobga olgan holda atrofdagi ishlab chiqarish korxonalarni fermer xujaliklarini agrosanoat majmualarni shaxsiy uylarda tashkil etiladigan yakka mehnat faoliyatlarini istiqboliga tayangan holda texnologiya fani negizida o'quvchilarni bir necha kasb-hunarga yo'naltirishning kasb-korlik tayyorgarlikka uyg'unlashtirishgan holda mustaqil ravishda belgilab oladi.

Texnologiya fani jarayonida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishdan asta-sekin aniq kasb-korlikka tayyorgarlik mazmunida mehnat kasb ishlab chiqarish va

boshqa sohalaridagi materiallar uyg'unlashtirilgan holda aks etiladi. Texnologiya fani mazmunidan o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish jarayonida ularni kamida 3 ta kasbga tayyorgarlik holatini o'quvchilar amaliy foliyatlarini bozor mnosabatlari bilan uyg'unlashtirilgan holda aks etiladi. Negizida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish imkoniyatlarini anik kasb-korlikka tayyorgarlik o'quv rejasi dasturlari va didaktik materiallari yagona tarkibda va uzluksiz tamoyillar asoslariga binoan ishlab chiqiladi.

Texnologiya fani zaminida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishgina umumiy mehnat umumiy texnika umumiy texnologiya umumiy ishlab chiqarish umumiy kasblar yangi malumotlar bilan uyg'unlashtirilgan va uzviy bog'langan tizim xamda tamoyillar asoslarida o'zlashtirishni tashkil kilinadi.

Texnologiya fanida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishda ularni kasb-korlikka tayyorgarlikning o'quv jarayonlarida noananviy vaziyatlar va yangi dars texnologiyalar uzluksiz hamda yangilangan holatda qo'llaniladi, kasb-hunarga yo'naltirishda ular o'quvchilarni o'zlashtirilgan mehnat va kasb-korlik bo'yicha tayyorlash jarayonlaridagi shakllanayotgan bilimlar ko'nikmalar mahoratlar malakalar va ijodkorliklar uzluksiz boyitilib kengaytirib va chuqurlashtirib boriladi, mehnat talimda o'quvchilarni kasb hunarga yo'naltirishni kasb-korlik tayyorgarligida nazariy bilimlarni o'zlashtirish xususiyatlarini inobatga olgan holda ularning asosiy qismlarini o'quvchilar darsdan tashqari va amaliy mashg'ulotlar jarayonida mustaqil ravishda uzviy bog'lab o'rganishga maxsus etibor beriladi.

O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish jarayonini uyg'unlashtirilgan mehnat va kasb-korlik bo'yicha tayyorlashda nazariy darslar amaliy mashg'ulotlar ishlab chikarish faoliyatlarni uzviy bog'langan jarayonda tashkil etiladi hamda boshqariladi.

O'quvchilarni kasb-hunarga yo'llash holatini uyg'unlashtirilgan mehnat va kasb-korlik bo'yicha tayyorlash jarayonlarning xususiyatlarini hisobga olgan holda – ularda test, reyting, kim oshdi namoyishlarini, ko'rgazmalarni ma'lum bir tizim va tamoyillar asosida uzviy bog'lab o'tkaziladi.

Mehnat jarayonlarini 1-sinf dan 9-sinf gacha o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirib umumiy talim fanlar bilan uzviy bog'langan hamda ularni kasbiy yo'naltirilgan holda boyitib kengaytirib va chuqurlashtirib olib boriladi.

O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish holatini uyg'unlashtirilgan mehnat va kasbkorlik bo'yicha tayyorlashni maktabgacha ta'lim – umumiy o'rta ta'lim –kasb hunar ta'limida ma'lum holda uzluksiz tizim va tarkibida tashkil qilinadi.

Uyg'unlashtirilgan texnologiya fani va kasb-korlika tayyorgarlikka manaviy marifat huquqiy ekologik asoslari bilan uzviy bog'langan holatda o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirilgan jarayonlari o'zlashtirilishi ta'minlanadi.

Uyg'unlashtirilgan texnologiya fani va kasb-korlikka tayyorgarlikni maxsus tashkil etilgan o'quv-tarbiya jarayonlarini samarasini oshirishda ulardagi didaktik asoslarda muallifni ilmiy asoslangan o'quv materiallarning mazmunini tadqiqot shakllari metodlari va vositalari muntazam ravishda tadbqiq etiladi shunda o'quvchilarni maktab sharoitida mehnat va kasbgacha tayyorgarlikka zaminni paydo bo'lgan hamda ular maktabni bitirgach kasb-hunar maktablarga tegishli yo'nalishga tayyorlangan holda o'qishni davom etiradilar.

Bu borada quydagi materiallardan zamin asosida qo'llanilsa – maqsadga muvofiq bo'la oladi.

I. Mavzu: Prezident Sh.Mirziyoyevning asarlarida ishlab chiqarishning isloh qilish ayrim masalalari.

II. Maqsad: O'quvchilarni – Prezident Sh.Mirziyoyevning asarlarida ishlab chiqarishni isloh qilishga oid nutqlari bilan tanishtirish hamda shu yo'nalish bo'yicha ularni tafakkurini kengaytirilgan holatda texnologiya fani va kasb tanlashga uzviyligini yoritish.

III. Ko'riladigan masalalar:

1. Ta'lim tarbiyaning ma'no va mazmunini-o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishni ishlab chiqarishda shakllanayotgan islohotlar bilan uyg'unlashtirish ahamiyati.

2. Milliy mafkurani ongimizga singdiruvchi amaliy ta'lim tarbiyani

ishlab chiqarish asoslari bilan o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishni uyg'unlashtirib amalda tadbiquetishlari.

3. Texnologiya fani tayyorgarlikni o'quvchilarni kasbga yo'llash bilan mumtoz hunarmandchilik bilan uyg'unlashtirish bugungi va kelgusi avlod tafakkurini kengaytirish asoslari.

O'zbekistonda mustaqillik davrining ta'lim-tarbiya tamoyillari birinchi navbatda ajdodlarimizning bu boradagi tajribalaridan faxrlanish tuyg'ularini tarkib toptirish va rivojlantirish bilan xarakterlanadi. Binobarin, fan va madaniyatning mumtoz namoyondalari qoldirgan ilmiy nazariy me'ros bugungi va kelgusi avlod tafakkuri doirasini kengaytirishga bevosita yordam beradi.

Mazkur va boshqa asarlarida Prezident Sh.Mirziyoyev respublikamizda keyingi yillarda ro'y berayotgan katta iqtisodiy, ijtimoiy siyosiy va xuquqiy o'zgarishlar haqida bayon etilgan. O'qituvchilarga tushunarli bulishi uchun o'qituvchi Sh.Mirziyoyevning yuqorida nomlari keltirilgan risolalarning ko'rsatilishi, zarur bo'lsa ularning mazmunini qisqacha ta'riflab berishi mumkin.

Shunday ekan O'zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyevning shu va boshqa asarlarini mukammal va atroflarcha o'rganish, unda olg'a surilgan g'oyalarni o'zlashtirib olish maqsadga muvofiqdir. Chunki asar har bir O'zbekiston fuqarosini porloq kelajagimiz uchun halol va faol mehnat qilishga chorlaydi.

Shunda texnologiya fani o'qituvchisi mazkur kursning davr talabiga binoan, o'quvchilarga davlatimiz oldida tutgan g'oyat muhim ishlab chiqarish bilan bog'liq vazifalar mamlakatni iqtisodiy, huquqiy va ijtimoiy isloh qilish, iqtisodiy munosabatlarni demokratiyalashtirish, kelajak poydevori bo'lmish yuksak ma'naviyatdan Vatan ravnaqi yulida foydalanish masalalarini ularga sodda va tushunadigan misollar bilan uyg'unlashtirgan holda tushuntiriladi.

Amaldagi qonun va dasturlarini amalga oshirishning asosiy bo'g'inida uzluksiz ta'lim tizimi yotadi.

1.3. O'quvchilarning darsda va darsdan tashqari vaqtlardagi kasb tanlashga yo'llash ishlarining forma va metodlari

Ta'lim jarayonida o'quvchilarni turli xil kasblar bilan tanishtirish boyicha muntazam ish olib borish ularni kasb tanlashga yo'llashning muhim sharti hisoblanadi.

O'quvchilarni har bir jamoa xujalik; tuman, shahar ishlab chiqarish muhiti orqali mehnat faoliyatining barcha turlari bilan tanishtirish mumkin, shuning uchun ham har bir texnologiya fani o'qituvchisi maktabda o'rganiladigan fan doirasidan tashqaridagi, maktab atrofidagi ishlab chiqarish muhiti bilan yaxshi tanish bo'lishi lozim. Masalan, Toshkent shahar maktablarida ishlayotgan texnologiya fani o'qituvchisi metallarga mexanik ishlov berish darsida slesarlik ishlarini o'tayotganda shaharning metall ishlab chiqaradigan zavodi bilan tanishtirishi mumkin.

Shuningdek, o'quvchilarning korxona bilan, ya'ni sanoat korxonasiga qachon nom berilgani, ishlab chiqaradigan mahsulotning nomi hamda asosiy kasb va ixtisoslarning qisqacha royxatini tanishtirish amalga oshiriladi.

Biroq o'quvchilarni korxona bilan tanishtirish batafsilroq bo'lishi mumkin. Bunda o'quvchilarni asosiy ishlab chiqarish bo'limlari (tsexlar) bilan, ularning jihozlanishi, har bir tsexning konkret mahsuloti, mazkur tsexdagi kasb va ixtisoslarning to'laroq royxati bilan tanishtirish lozim.

Uquvchilarning o'quv (ustaxonalaridagi texnikaga oid ishlari ularni ishchi kasbi bilan tanishtirish boyicha katta imkoniyatlar yaratadi.

Shunga qaramasdan V-VII sinflardagi texnologiya fanining mazmuni o'quvchilarda har qanday kasbni egallash uchun bab-baravar foydali bo'lgan umumiy mexnat bilim va ko'nikmalarini tarkib toptirishga olib keladi, bundan tashqari mehnat o'qituvchisi o'quvchilarni zamonaviy texnikaning elementlari, texnologiyasi bilan tanishtira borib, ularda zarur mehnat usullari paydo qmladi,

shuningdek, uyushqoqlik, ozodalik, tejamkorlikni tarbiyalab, ularni asta-sekin hayotda o'z yo'lini tanlashga tayyorlaydi.

Maktab ustaxonalari o'z vazifasiga ko'ra o'quvchilar o'quv mehnatini ishlab chiqarish bilan bo'lgan aloqasini amalga oshiradi. O'quvchilar o'quv ustaxonalarida metallarga ishlov berish stanogida birinchi marta ishlaydilar, bu erda ular materialga ishlov berish ustida dastlabki ko'nikma va malakalarni hosil qiladilar, texnikaga oid fikrlashlari, ijodiy aktivligi va mustaqilligi ortadi, kasb haqidagi bilimlari chuqurlashadi va kengayadi.

Texnologiya fani darslari ham, boshqa maktab fanlari qatori o'quvchilarda havas uyg'otishi lozim, ammo uning manbai og'zaki propaganda emas, balki o'quvchilar o'z maqsad va mehnat natijalarini ko'ra oladigan ijtimoiy-foydali xarakterdagi buyumlar (maktablar, korxonalar, otaliqqa olingan bolalar bog'chasining buyurtmalar)ini tayyorlashga oid amaliy ishlar bo'lmog'i lozim.

Shuning uchun ham, maktab ustaxonalarida texnologiya fanining to'g'ri yo'lga qoyilishi o'quvchilarning kasb tanlashi, ayniqsa ishchi kasbini tanlashida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi.

Ishchi kasbi boyicha kasbga oid axborot ishlarining asosiy yo'nalishi, xarakteri mazmunini belgilash uchun mehnat o'qituvchisi o'rganilayotgan programma temasini mashinasozlik ishlab chiqarishi bilan, bu korxonada xizmat qiluvchi xodimlarning etakchi kasblari bilan yaqindan aloqasini o'rnatmog'i zarur. Shu munosabat bilan texnologiya fani o'qituvchisi o'z rayonining ishlab chiqarish korxonalari hamda bu korxonalarning kasb va ixtisos boyicha ishchi kadrlarga bo'lgan ehtiyojini yaxshi o'rganishi lozim.

Olingan materiallar asosida o'qituvchi texnologiya fanining konkret sanoat korxonasi bilan aloqasini aks ettiradigan jadval hamda mazkur korxona katta ehtiyoj sezayotgan etakchi ishchi kasblari royxatini e'tibor bilan tuzib chiqishi kerak.

O'qituvchi mehnat darsida programmaning u yoki bu temasini o'tish jarayonida, xususan, o'quvchilar tomonidan chilangarlikning metallarga belgi qoyish, to'g'rilash, bukish, qirqish, arralash operatsiyalarini o'zlashti-rishlarida

ularni ishchi qasbi bilan qanday tanishtirganini misol asosida batafsilroq ko'rib chiqamiz. Mehnat o'qituvchisi bu operatsiyalarning to'g'ri usullarini ko'rsatib berib o'quvchilar e'tiborini bu usullarning qulayligiga, ish unumdorligi va sifatiga qaratmog'i lozim.

O'qituvchi o'quvchiga bu topshiriqlarning sifatini pasaytirmagan holda belgilangan vaqt normasida bajarishi lozimligini aytadi. O'qituvchi slesarlik operatsiyalarini bajarish paytida o'quyochilarda mehnat usullarini to'g'ri shakllantirishga harakat qilib, ularga agar chilangar-asbobsozlar, tamirlovchilar, chilangar-shtampovkachilar bajarishga to'g'ri keladigan ishlar xarakter jihatdan murakkab va mas'uliyatli ekanini tushuntiradi, shuning uchun mehnat usullarini qat'iy to'g'ri bajarish kerakligini aytadi. O'quvchilarni kasblar bilan tanishtirgach, o'qituvchi gazo-elekt payvandchi, ayniqsa, chilangar-payvandchi, chilangar-asbobsoz ixtisosiga ega bo'lgan ishchilar korxonada eng malakali kasb egasi hisoblanishini ta'kidlaydi.

O'quvchilarda kasbga qiziqishni tarbiyalash kasbni to'g'ri tanlashni nazarda tutadigan etakchi motivlardan biri hisoblanadi. Demak, maktabda kasb tanlashga yo'llash ishlarining muhim yo'nalishlaridan biri o'quvchilarda kasbga bo'lgan qiziqishni aniqlash va o'stirish bo'lmog'i lozim. O'quvchilarning kasbga qiziqishini aniqlash ularning muayyan formada tayyorlangan anketalarni to'ldirish, umumta'lim fanlari boyicha o'quvchilar o'zlashtirishlarini o'rganish, ularni o'qitish va kamol toptirish davomida kuzatish, kasb haqida individual suhbatlar, o'quvchilarning to'garaklarga ishtiroki, qiziqish kartasini to'ldirish («Qasb-hunar konsultatsiyasi» bo'limiga qarang), o'qituvchi va ota-onalar bilan suhbat kabi didaktik usul va metodlar yordamida amalga oshiriladi.

Olingan ma'lumotlar o'quvchi kasbni (ixtisosni) yoki o'quv yurtini to'g'ri tanlay bildimi, bular uning havasi va qobiliyatiga muvofiq keladimi, nima sababdan mazkur kasbni yoki o'quv yurtini tanladi, ota-onalari va o'qituvchilarining fikri qanday ekanini aniqlash imkonini beradi.

Anketalarni to'ldirishdan oldin o'quvchilarga ular anketadagi savollarga javoblar «oylab» topmasliklari, balki o'z qiziqishlari va konkret imkoniyatlaridan kelib chiqmoqlari kerakligi aytiladi. Haqiqatga muvofiq kelmaydigan javoblar o'qituvchini chalg'itadi va o'quvchilarning kasbga qiziqishlarini shakllantirishga doir masalalarni ancha murakkablashtiradi.

Anketa ma'lumotlarining taxlili asosida fan-o'qituvchisi, sinf rahbari har bir o'quvchining kasbga, bo'lgan qiziqishi va ularning barqarorlik darajasi, ishonchligini diqqat bilan o'rganadi, ana shu asosda ularni yanada rivojlantirish boyicha tashkiliy-metodik tadbirlar belgilaydi, o'quvchida xato yoki noaniq istaklar bo'lgan taqdirda esa tushuntirish ishlari kasbga oid suhbatlar olib borishi .kerak bo'ladi. Biroq kasbga qiziqish boyicha bir martagina o'tkazilgan anketa usuli natijasidagi ma'lumotlar maktabni bitirguncha ob'ektiv va o'zgarimas bo'lib qoladi, deb oylash xato bo'lar edi. Gap shundaki, o'quvchilarning u yoki bu mehnat faoliyatini tanlash boyicha mayl va qiziqishlari har xil bo'lib, barqarorligi esa puxta sanalmaydi. Kasbga bo'lgan havas dinamikasi va rivojini kuzatib borish uchun bunday anketa tarqatish usulini har bir sinfda har yili o'tkazilgani ma'qul.

U yoki bu o'quvchining kasb tanlashida yuz berayotgan o'zgarishlarni o'qituvchi va sinf rahbari diqqat bilan kuzatishi, o'rganishi, sabablarini aniqlashi kerak. Shunday aniqlashlardan keyingina mazkur o'quvchining kasbga havasi va mayliga doir keyinti ishlar to'g'risida oylash mumkin.

O'quvchilarning kasbga qiziqish masalasi ko'rib chiqilganda yuz beradigan o'zgarishlarning sifat jihatdan farqlanadigan to'rt xil darajasini nazarda tutmoq zarur.

1. Oldingi qiziqish keyingi sinfda mustahkamlanadi va rivojlanadi.
2. Oldingi qiziqishni aniqlash va kasb haqida tasavvur qilish paydo bo'ladi.
3. Dastlabki qiziqish boshqasi bilan oylab, asoslab tanlangani bilan almashinadi.

4. Mehnatning u yoki bu turiga nisbatan dastlabki paydo bo'lgan qiziqish unchalik oylab tanlanmaganligi tufayli so'na boshlaydi, uning o'rniga boshqasi paydo bo'lishi mumkin va, aksincha, kasbga qiziqish butunlay so'nishi ham mumkin. Bunday hol kichik va o'rta yoshdagi o'quvchilarning hali ongli ravishda o'ziga kasb tanlay bilmasligi kasbga havas asta-sekin rivojlanib borishi bilan izohlanadi, uni mustahkamlash uchun esa kasb tanlashga oid ishlarni tinimsiz amalga oshirish kerak bo'ladi.

Kasbga barqaror va asosli qiziqish o'quvchilarning faoliyat turlari -o'quv, mehnat, sinfdan tashqari ishlar va hokazolar bilan mustahkamlanishi zarur. Ammo qiziqishning chuqur va qat'iyligi, avvalo, uning amaliy faoliyatda yanada mustahkamlanishiga bog'liq. Shuning uchun ham qishloq xo'jaligi, texnikaga ovd hamda xizmat ko'rsatish mehnati darslari va texnika ijodkorligi to'garaklari ko'proq bu talablarga javob beradi.

Qishloq maktablari o'quvchilarida kasbga qiziqishni tarkib toptirish uchun texnologiya fanining qishloq xo'jaligi tajriba uchastkasi, o'quvchilar brigadasi, yosh mexanizatorlar, ixtirochilar, tabiatshunoslar to'g'araklari singari metod va formalaridan foydalanish mumkin.

Qishloq maktablarida mehnatga tayyorlash ishlarining yaxshi yo'lga qoyilishi o'quvchilarda qishloq xo'jaligi kasblariga qiziqish imkonini beradi: ya'ni ular agrotexnika bilim va ko'nikmalarini egallaydilar, qishloq xo'jaligining turli sohalarida foydalanish mumkin bo'lgan mehnat faoliyatiga tayyorlanadilar.

Ayniqsa qishloq yoshlarining qishloq xo'jaligida eng ko'p tarqalgan mexanizatorlik kasbiga intilishlari qayd qilinadi. Mexanizator mehnatining qiziqarli tomoni shundaki, bunda mashinalar sistemasi o'simliklarning rivojlanish biologiyasi hamda qishloq xo'jaligi ishlarining mavsumiyligini hisobga olgan holda yaratiladi, shuning uchun ham o'quvchilarning texnikaga oid bilim va ko'nikmalari agrotexnika bilimlari bilan birgalikda olib borilishi kerak.

O'quv korxonalarida mehnat darslarining yaxshi yo'lga qoyilishi o'quvchilarning sanoat mehnatining har xil turlariga ishtirok etishlarida hal qiluvchi

axamiyat oynaydi. Ammo bu masalada erishiladigan muvaffaqiyat ko'pincha o'quvchining o'ziga, uning intizomliligi, tirishqoqligi, ishga oylab, jiddiy munosabatda bo'lishiga bog'liq.

O'quvchilarning metallga ishlov berish stanoklarida qo'l va mexanizatsiyalashgan asboblarda yordamida konkret o'quv-ishlab chiqarish ishlarini bajarishi ularni sanoat ishlab chiqarishida ko'proq tarqalgan turli xil ixtisoslar: chilangarlik, tokarlik, frezerlik, randalovchi, parmalovchi siigari kasblar bilan tanishtiribgina qolmay, balki ularda mehnatning bu turlaridan birini egallashga bo'lgan qiziqishini ham rivojlantiradi.

Darsdan tashqari vaqtlardagi kasb tanlashga yo'llash ishlarining forma va metodlari

O'quvchilarda kasbga oid qiziqishlarni o'stirishda fermer xo'jaligiga, sanoat korxonalariga uyushtiriladigan ekskursiyalar samarali vosita hisoblanadi.

Ekskursiyaga maktab o'qituvchisigina emas, ishlab chiqarishda uchrashishni mo'ljallayotgan kasb egalari ham puxta tayyorlik ko'rishlari lozim. Ekskursiya boshlanishi oldidan o'quvchilar mazkur korxonaning ichki-tartib qoidalari, ya'ni xavfsizlik texnikasi, uning territoriyasi va tsexlarida o'zini tutish koidalari bilan tanishtirilgan bo'lishlari kerak. Shuningdek, o'qituvchi ularga tsexlarni jihozlanishi, xom ashyo, texnologik jarayonlar, tayyorlanadigan mahsulot va kasbga oid materiallar yig'ish boyicha aniq topshiriqlar berishi darkor. Buning uchun korxona vakili ishlab chiqarish xarakteri, uning mahsuloti, yangi texnikaning joriy qilinishi va fan yutuqlari, ishlab chiqarish ilg'orlari, ratsionalizatorlar, ixtirochilar haqida; o'qish, turmush, ommaviy-madaniy ishlar, korxonaning rivojlanish istiqbollari, jamoaning asosiy vazifalari haqida; kichik mutaxassislariga bo'lgan ehtiyoj haqidagi masalalarni yoritib berishi kerak.

O'quvchilar ekskursiyadan olgan taassurotlari va to'plagan materiallarini hisobotlar, insholar, referatlar, stendlar, albomlar tarzida rasmiylashtirishlari lozim. Shunday qilib, korxonaga uyushtirilgan ekskursiyalar o'quvchilarga ularning

tanlagan kasbga munosabati hamda unga bo'lgan professional qiziqish darajasini aniqlashda yordam berishi kerak.

To'garak ishlari.

Maktabda tashkil qilinadigan fanlar boyicha, birinchi navbatda, texnikaga oid to'garaklarning maqsadi — bolalarning sinf mashg'ulotlari jarayonida qondirilmagan talab va ehtiyojlarini (bu talab va ehtiyojlar har-bir o'quvchida sof individual holda bo'ladi) qondirishdan iborat.

To'garak turlarni erkin tanlash, ularda mashg'ulotdan bo'sh vaqtlarda erkin ishtirok etish, mustahkam bilim va malakalarni ishchan va ijodiy sharoitda, birinchi navbatda, kasbga yo'naltirilgan juda ko'p qimmatli sifatlarini tarkib toptirishni tarbiyalashga yordam beradi.

Maktabda to'garak tashkil qilganda, o'quvchilarni to'garak ishlariga ommaviy jalb etishgagina harakat qilib qolmay, balki, birinchi navbatda, nima uchun o'quvchi ushbu to'garakda shug'ullanishni xohlayotganini, bu to'garak turini tanlaganda xatoga yo'l qoymaganligini ham aniqlash lozim.

Shu maqsadda fan o'qituvchisi, murabbiy, to'garak rahbarlari o'quv yilining boshlanishida darslarda, tarbiyaviy soatlarda bevosita o'quvchilar bilan suhbat o'tkazishi va maktab radiosi orqali o'z shogirdlariga qanday to'garaklar ishga tushishini, ular ishining mazmuni, nimadan iborat ekanligini o'quvchilar ulardan qanday bilim va ko'nikmalar olishi mumkin, ular uchun qanday amaliy ishlarni bajarishga to'g'ri keladi — ana shular haqida gapirib berishlari lozim.

O'quvchi to'garaklarni to'g'ri va bexato tanlaganini aniqlash uchun to'garaklarga yozilish boyicha anketalar o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Bu anketalar o'z ichiga quyidagi ikki savolni olishi zarur:

1. Senga qanday to'garak yoqadi?
2. Nima uchun sen aynan shu to'garakda shug'ullanishni xohlading?

O'quvchilarning bu savollarga bergan javoblari kasbga qiziqishning yo'nalishini ham, to'garak tanlash sabablarini ham aniqlash imkonish beradi. To'garak ayrim o'quvchilarning istaklarini qondira olmaganida to'garak rahbari bu

o'quvchiga ishida ham umumiy, ham nazariy, ham amaliy mashg'ulotlari bo'lgan aralash to'garakni tavsiya qilishi lozim.

Har qanday to'garak ishining muvaffaqiyati undagi birinchi mashg'ulotning qanchalik ,uyushgan va qiziqarli o'tkazilishiga bog'liq. Shuning uchun ham to'garak rahbari to'garak a'zolariga to'garakning maqsad va vazifalarini tushuntirishi, shuningdek ,ularga loyihalananadigan va yasalishi kerak bo'lgan mashinalarning harakatdagi modelini ko'rsatishi kerak. Bularning hammasi to'garak a'zolarida mustaqil ijodiy faoliyatga qiziqish, zarur bilim va ko'nikmalar olishga ishtiyoqni o'stiradi. Misol tariqasida to'garak a'zolarining radiotexnika to'garagida to'garak a'zolarini kasb bilan tanishtirish taxminiy rejasi hamda ularda kasbga qiziqishni o'stirish metodlarini ko'rib chiqish mumkin.

O'quvchilarni qishloq xo'jaligiga qiziqishini oshirish, konkret qishloq xo'jaligi kasbi bilan tanishtirishda yosh tabiatshunoslar to'garagi katta ahamiyatga ega. Yosh tabiatshunoslar to'garagi, odatda, o'z ishi rejasini dastur asosida tuzadi. Esh tabiatshunoslar to'garagi: fermer-sabzavotkor; gulchilar, bog'bonlar, chorvadorlar singari qator sektsiyalarni o'z ichiga oladi.

Yosh tabiatshunoslarning to'garaklarda muntazam ishtirok etishi ularning kasbga qiziqishlarini rivojlantiradi. Qishloq xo'jalik ishlariga kiziqishini oshiradi, hayot yo'lini yanada ongliroq tanlashlariga yordam beradi.

Qiziqishiga ko'ra gruppalar.

O'quvchilarda kasbga havasni tarkib toptirish va rivojlantirishning yangi, eng samarali yo'llarini izlash, qiziqishiga ko'ra klub va gruppalar deyiladigan yangi formaning tug'ilishiga olib keldi. Bu gruppalariga a'zo bo'lganlar yig'uvchilangar, chilangar-asbobsoz, shtampovkachi-chilangar , remontchi-chilangar, santexnik-chilangar kabi turdosh ixtisoslar bilan tanishadilar.

Qiziqishiga ko'ra gruppalarni komplektlashni kasbga bo'lgan qiziqishi so'ngan o'quvchilardan tashkil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu gruppalar-da asosiy ishlar guruh rejasini tuzishda ishtirok etadigan, uning bajarilishini kuzatib

boradigan, kasb haqida konsultatsiya va suhbatlar o'tkazadigan, ota-onalar va faol o'quvchilar bilan ish olib boradigan sinf rahbari zimmasiga yuklatiladi.

Qiziqishiga ko'ra guruxlarni komplektlashda o'quvchilarning jismoniy kuchi va sog'ligini hisobga olish zarur. Gruppalariga bevosita rahbarlik qilish uchun qishloq joylarida fermer xo'jaligi zootexnigi, elektrik, mexanik, fermer-asalchi, fermer-o'simlikshunos, agronom va boshqalar, sanoat korxonalarida uchastka ustasi, tsex boshlig'i, uchastka brigadiri, bosh mexanik, energetik, texnolog, ishlab chiqarish muxandisi tayinlanadi.

Qiziqishiga ko'ra gurux a'zolari undagi asosiy va aralash kasblar boyicha materiallarni, ya'ni nashrlardan qirqib olingan professional mehnat va ishlab chiqarish ilg'orlari haqidagi fotosuratlarni, ishlab chiqarishning turli masalalari boyicha statistik ma'lumotlar, xalq xo'jaligi turli sohalarining taraqqiyotini ko'rsatadigan sxema diagrammalarni hamda mazkur iqtisodiy tumanning ishchi kadrlarga bo'lgan ehtiyoji haqidagi ma'lumotlarni yig'ishlari lozim. To'plangan materiallar «Mening sevgan kasbim» deb nomlangan maxsus stendga joylashtiriladi.

Biroq qiziqishiga ko'ra guruxlarning faoliyati materiallar to'plash bilan cheklanib qolmaydi. Guruxlarda e'tibor ko'proq ixtisoslar boyicha o'quvchilarning amaliy-faoliyatiga, ularning mehnat mazmunini anglashlariga, asosiy mehnat usullarini egallashlariga qaratilmog'i lozim. Qiziqishiga ko'ra guruxlarda ishning bunday tashkil qilinishi uning a'zolari o'rtasida kasbga qiziqishni tarkib toptirishni ta'minlaydi.

Qiziqishga ko'ra klublar ishining mazmuni ham qiziqishiga ko'ra guruxlar ishining mazmuniga o'xshab ketadi. Biroq klublarda bajariladigan ish hajmi va unga qatnashuvchilar soni guruxlarnikidan ancha ko'proq bo'ladi. Ular orasidagi asosiy farq ham shundan iboratdir.

Kasbga qiziqishni rivojlantirish formasiga misol tariqasida: «Yosh temir yo'lcilar klubi», «Yosh quruvchilar klubi», «Yosh menejerlar klubi» va

hokazolarni kiritish mumkin. Qiziqishiga ko'ra klublar turli xil maktablardan juda ko'p o'quvchilarni o'ziga qamrab olgan.

Klublarda kasblarni o'rganish va kasbga qiziqish metodlari qiziqishiga ko'ra guruxlarniki bilan bir xil bo'ladi. Qiziqishiga ko'ra klublarda kasbga oid axborotlar to'plash uchun, ishda tajriba almashish hamda ishchi kasbi haqida bilimlarni tashviqot qilish uchun yaxshi sharoitlar yaratilgan.

Kasblar va kasblarga qiziqish haqida referatlar.

O'quvchilar orasida bunday ishlarni amalga oshirishdan maqsad kasb bilan yaqinroq tanishtirish va mehnatning muayyan bir turiga bo'lgan qiziqishni kuchaytirishdan iboratdir.

Texnologiya fani dasturlarida maktabda o'quvchilarga qator kasblar hamda metall va yog'ochga ishlov berish texnologiyasini, xizmat ko'rsatish mehnati, qishloq xo'jaligi ixtisoslari bilan tanishish imkonini beradi.

Biroq, bu kasblar mazmunini to'la o'rganish uchun bu ma'lumotlar etarli emas. Shuning uchun ham qandaydir aniq kasbga muayyan darajada havasi bo'lgan o'quvchilarga referat mavzularini taklif etish zarur.

Mexanizatorlik kasbi boyicha referatlarning taxminiy rejasi quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. Sen mexanizator kasbini qanday tasavvur qilasan?
2. Bu kasb senga nima uchun yoqib qoldi?
3. Mustakillikka erishgandan avval qishloq xo'jaligi mexanizatsiya bilan qanday ta'minlangan edi va hozir qanday?
4. Fermer xujaliklarda qanday qishloq xo'jaligi mashinalaridan foydalaniladi, mamlakatimizda qishloq xo'jalik texnikasi taraqqiyotining isshqbollari qanday?
5. Mexanizator mehnatining mazmuni nimadan iborat?
6. Qaerda va qaysi o'quv yurtlarida bu kasbni egallash mumkin? Uqish sharoitlari va kelgusidagi istikboli.
7. Kelajakda sening rejalarining qanday?

Mazkur kasbga doir referat uchun materiallar tayyorlash va yig'ish, uni turli qishloq xo'jalik mashinalarida ishlab turib parallel holda o'rganish o'quvchilarga bu kasbni yaxshi bilishnigina emas, balki unga bo'lgan barqaror qiziqishni tarkib toptirish imkonini ham beradi.

II. BOB. UMUMIY O'RTA TA'LIMDA O'QUVCHILARNI KASB HUNARGA YO'NALTIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH METODIKASI

2.1. Umumiy o'rta ta'limda o'quvchilarni kasb tanlashga yo'naltirishda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining ahamiyati

Hozirgi texnika va texnologiyalar shuningdek, axborot kommunikatsiyalar yuksak rivojlangan davrda ta'lim va tarbiya olayotgan yoshlarga zamonaviy bilim va ko'nikmalar hosil qilishda pedagogning roli juda katta ahamiyatga ega. Pedagogning har bir pedagogik mehnati mahsulida pedagogik texnologiyalar yuksaklashadi va keng miqiyosda samaradorligi oshadi. Zamonaviy shart-sharoitlar kasbiy mahoratli mutaxassis pedagoglarga bo'lgan talabning oshishiga, uning shaxsiy sifatlarining, g'oyaviy-siyosiy, manaviy va intellektual qobiliyatlarining rivojlanishining yuqori darajada bo'lishi, o'qituvchilarning pedagogik texnologiyalarni qo'llashda faol harakatda bo'lishi pedagogik faoliyati uchun juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Texnologiya fani darslarida o'quvchilarning axborot madaniyatini shakllantirish va kasb-hunarga yo'naltirishda axborot va kommunikatsion texnologiyalarning o'rni va ahamiyatni aniqlash zarur:

- 1) Maktab o'quvchilari kasbga qiziqishlarini rivojlantirishda texnologiya fani mazmunini ko'rib chiqish;
- 2) Axborot madaniyatining umumiy tushunchasi mazmunini, o'quvchilarning axborot madaniyatining o'ziga xos xususiyatlari tahlilini, kasbga yo'naltirish

jarayonlarida o'quvchilarning axborot madaniyatining rivojlanish masalalarini ko'rib chiqish;

- 3) Texnologiya fani sohasida axborot-kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanishning ko'rinishini ishlab chiqish.

Yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar ta'limga zamonaviy yondashuvlarni qayta ishlab chiqish zaruratini taqazo etmoqda.

O'z navbatida, o'quvchilarning texnologik tayyorgarligini keng va qisqa ma'nolarda anglatish mumkin. Keng ma'noda "Texnologik tayyorgarlik" tushunchasi kasb tanlashga yo'naltirishda barcha predmetik tayyorgarligini o'z ichiga oladi va quyidagi ketma-ketlikda amalga oshadi: umumtexnikaviy, texnologik, ijodiy-konstruktorlik tayyorgarligi. Texnologiya fanida o'quvchilarni kasbga yo'naltirish jarayonini mukamallashtirish muammolari o'ziga xos xususiyatlariga ega. O'quvchilarni kasbga yo'naltirishning bu xususiyatlari, har xil texnologiyalar bilan ishlaydigan kichik mutaxassis doirasi nuqtaiy nazardan qaralib, texnologiya faninining ixtisos beruvchi afzalliklari o'quv jarayonini tashkil etishning qanday me'yoriy, va shunday protsessual jihatlari talablarini aniqlash qanchalik oldindan belgilanganligini ko'rsatadi.

P.S.Lerner "Texnologiya fani" o'quvchilarda kelajakda o'z mavqeini belgilash qobiliyatini tarbiyalash munosabatlariga boshqa barcha maktab predmetlariga nisbatan ko'proq ega bo'lishi va ega bo'lishi shartligini, u shunday predmet ekanligi, inson faoliyatida moddiy va moddiy emas boyliklarni ishlab chiqarishini, o'quvchilarga ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosabatlari bosqichlari tendentsiyasini va bu munosabatlarni o'z ichiga olishini tushunish imkonini berishini isbotlaydi. Lerner mehnat ishchisining xulqidagi o'zgarishni, birinchi navbatda, butun jahon bo'ylab mahsuldor faoliyatning har xil shakllari bilan o'quv jarayonini boyitish, ta'limni hayot bilan bog'lash, mahorat va bilimlarni zamonaviy tushunchalarning funktsiyaviy savodxonlik darajasiga ko'tarish uchun ta'lim mazmunini qayta ko'rib chiqish g'oyasi ko'tarilganligi, barcha mehnat faoliyati turlarini intellektuallashtirish, komp'yuterlashtirish,

avtomatlashtirish bilan bog'lanishini belgilab o'tadi. Shuning uchun ta'limga munosabatni ijtimoiy xavfsizlik sifatida, hamisha tanlash sharoitlarida yashash yo'lini topishda – o'z imkoniyatlaringni bilish, o'z qobiliyatlaringni rivojlantirish, o'z ish faoliyatingning barcha bosqichlarida amalga oshirishni o'rganish kabi hal qiluvchi chiziqli sifatida qo'yish kerak.

Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida ijtimoiy-iqtisodiy inqiroz, ishchi kuchlarni tezda qisqartirib, zaruriy bilim, malaka va ko'nikmalar tizimi bilan qurollangan, kasbiy moslashuvi shakllangan mutaxassislar bo'lgan zaruratni to'g'diradi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida kasbiy masalalarni qobiliyatli tarzda echishda, ijodiy va kasbiy-epchil mutaxassislar tayyorlash zarur.

Texnologik ta'limning kontseptsiyasida maktab o'quvchilarining umum madaniyati tuzilishida "Texnologik" madaniyati singari, "Axborot" madaniyati tushunchasi ham zarur.

O'quvchining axborot madaniyati muammosi bugungi kunda juda ham dolzarb. Axborot resurslar, Internet va shu jumladan ko'p miqdordagi nashrlarning bor bo'lishi "Axborot madaniyati" ni ochib beradi.

N.I.Gendina bu tushunchani talqin qilishda ikkiga ajratadi: "Axborotshunoslik" va "Madaniyatshunoslik". Birinchisi doirasida bilim, qobiliyat va ko'nikmalar majmui ko'zda tutiladi. Ikkinchi yondashuvni foydalanish orqali axborot madaniyatini - insoniy madaniyatning shakllanish jarayonini tuzuvchi axborot muhitida insonning turmush kechirish qobiliyati sifatida ko'rsatadi.

Boshqalar, axborot madaniyatini, zamonaviy axborot jamiyatida o'xshashlik talabida, yangi oddiy bo'lmagan fikrlash uslubi deb tushinadi. Uchinchi birovlar, axborot madaniyatini aniqlashda, axborot ta'limi muhiti va manba'si bilan bilimlar, qobiliyat va ko'nikmalar majmui sifatida ishlashni taklif etadi: axborot madaniyati zamonaviy texnik vositalar va metodlari, komp'yuterli axborot texnologiyasidan olish, qayta ishlash va etkazib berish uchun foydalanish va axborotlar bilan ishlashda maqsadga yo'naltirilgan qobiliyat. Yangi axborot texnologiyalar va ularni qo'llash mahoratidagi bilimlari axborot madaniyatining

ajratib bo'lmaydigan qismidir. O'qituvchining axborot madaniyati, insoniyat madaniyati va inson haqidagi bilimlarni birlashtiruvchi murakkab tizimli ta'lim sifatida qarash zarurligini; u ijtimoiy ong, milliy, iqtisodiy, ekologik, texnika va jamiyat taraqqiyotining boshqa sohalarining rivojlanish darajasini aks ettiradi; madaniyatning boshqa turlari bilan o'zaro bog'liq. U nafaqat insoniyatning ijtimoiy uslubini, balki insonning o'ziga xos uslubini aks ettiradi. Bizning nuqtai-nazarimizda axborot madaniyatining dars-amaliy sohasidagi tavsifini kiritishga tegishli axborot-texnologik tayyorgarlikni shakllantirish maqsadimiz bo'lishi kerak. U quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- axborot muhitida faoliyatning turlari va shakllari, yangi bilimlarni o'zlashtirish va qayta ishlab chiqish qobiliyati;
- yangi axborot texnologiyalarni foydalanish orqali jamoaviy faoliyatga tayyorlik;
- operatsion ko'nikmalardan foydalana bilish – dasturiy ta'minot bilan ishlash mahorati, echim qabul qilish, kerakli axborotni ajratmoq, yangi g'oyalarni hosil qilish;
- axborotlarni qayta ishlash ko'nikmalari;
- axborot vositalari va texnologiyalarini foydalanishda muomala qilish mahorati;
- axborot muhitida kasbiy yo'nalishini aniqlash mahorati.

Komp'yuter shunday vositadir – har bir inson bilimlarni o'zlashtirish imkoniyatini oshirishda, qo'llashda va tadbqiq qilishda insoniyat faoliyatining quroli deb hisoblash mumkin. Komp'yuter texnikasidan inson quroli sifatida foydalanish, yangi fikrlash shaklini, xotirada tutishlik, ijodiy faoliyatning paydo bo'lishini bildirib, inson psixikasi jarayonlarining tarixiy rivojlanishi sifatida baholash mumkin.

EHM larni foydalanish o'qituvchi funksiyasini jiddiy o'zgartib yuboradi. Unga dastlab, o'quv jarayonini boshqarishning yo'llarini aniqlash va eng qulay algoritmlarini ishlab chiqish kerak bo'ladi. I.R.Visotskiy shunday yozadi,

kompyuter yordamida mashg'ulot o'tishda, pedagog hamisha puxta tayyorgarlikda bo'lishi kerak. Ba'zida, mashg'ulotlarda uning roli o'zgaradi va pedagog deyarli ko'rinmay qoladi, garchi u – ta'lim oluvchilarning o'quv faoliyatining asosiy tashkilotchisi bo'lsa ham. Pedagogdan texnika ta'siri ostida “qolib ketmasdan”, uni bilishi va o'zining ta'sirini ko'rsatish qobiliyatini talab etadi.

I.V.Robert o'qituvchi faoliyatida AKT vositalarini foydalanishning qo'yidagi imkoniyatlarini ko'rsatadi:

- o'qitish jarayonini mukammallashtiruvchi o'qitish vositasi sifatida foydalanish;
- atrofidagi haqiqatlikni va o'zini anglash vositasi sifatida;
- Ta'lim berilayotgan shaxsning rivojlanish vositasi sifatida;
- informatika kursini o'zlashtirish doirasida o'rganish ob'ekti sifatida;
- o'quv-tarbiyaviy jarayonni boshqarish va axborot-metodik ta'minlash vositasi sifatida;
- kommunikatsiya vositasi sifatida;
- jarayonlarni avtomatlashtirish, tajriba-sinov va boshqarish natijalarini qayta ishlash vositasi sifatida;
- o'qish faoliyati, test va psixodiagnostika natijalarini nazorat qilish, to'g'rilash jarayonlarini avtomatlashtirish vositasi sifatida;
- intellektual bo'sh vaqtni tashkillashtirish vositasi sifatida.

Konstruktiv komponent ma'lum sharoitlarda mashg'ulotlarni tuzish bilan bog'liq faoliyatni ko'zlaydi. Maqsadga muvofiq mashg'ulotlar tuzush uchun axborotlarni yig'ish va izlash uchun yangi axborot texnologiyalar vositasining har xil turlaridan foydalaniladi: ma'lumotlar bazasi, instrumental dasturiy vosita (IDV), Internet resurslari v.b.

O'qituvchi o'quvchilarning bilimlari, qobiliyat va ko'nikmalari va javoblar tahliliga, o'quv-tarbiyaviy jarayonning ahvoli haqida axborotga ega bo'lishlari kerak. Har xil axborot manba'laridan, xususan, AKT vositalarini qo'llash, shular

qatorida, axborotlarni olish va almashish uchun telekommunikatsiyalardan foydalanishni bilish zarur.

O`qituvchi faoliyatining loyihalashga oid komponentida, o`quv-tarbiyaviy jarayonini istiqbolli rejalashtirish, axborot-metodik ta`minlanish jarayonlarini avtomatlashtirish komp`yuter imkoniyatlarining paydo bo`lishiga olib keladi.

O`qituvchi faoliyatining kommunikativ komponenti, o`quv-tarbiyaviy jarayonda uning sub`ektlarining o`zaro munosabati bilan bog`liq. Bu bilan axborot etkazib berish vositasi – komp`yuter tarmoqlarini keng ko`lamda qo`llashga olib keladi. Zamonaviy komp`yuter tarmoqlarining imkoniyatlari, qachonki o`qituvchi va o`quvchi orasidagi barcha axborot-munosabatlari tarmoq orqali ro`y berganda masofaviy ta`limning imkoniyatlarini ta`minlaydi.

O`qituvchi faoliyatining tashkillashtiruvchi komponenti – o`quv-tarbiyaviy jarayonini tashkillashtirish bilan bog`liq bo`lgan harakat. AKT lar yordami bilan o`quvchilarning mustaqil, jamoaviy va individual ishlarini tashkillashtirish, shuningdek, o`quv-tarbiya jarayonni dasturiy vositalar bilan boshqarish, nazorat qilish zarur. Bundan tashqari, o`qituvchi o`quv muassasining ishlarini tashkillashtirishda AKT vositalarini foydalanishi kerak.

Telekommunikatsiya tizimi o`qitishni individuallashtirish va differentsiallashtirish imkoniyatini beradi, faoliyatning mustaqil, ijodiy va tadqiqotchilik imkoniyatini namoyish etadi, bilish faoliyatining barqaror motivatsiyasi va axborotlarning ishonchli saqlanishi, zaruriy qayta ishlanishini ta`minlaydi.

Internet hamkorlikda ishlash uchun katta imkoniyatlarni ochadi. Internetning ahamiyatini o`quv telekonferentsiyalarini foydalanish imkoniyati sifatida ta`riflash mumkin. Bu narsa Internetdagi so`ngi o`zgarishlar tufayli, foydalanuvchilar uchun shakllanishi mumkin bo`lgan nafaqat elektron pochta, telekonferentsiya va e`lonlar uchun elektron doskalar, va balki ishlatilishi Internetda keng tarqalib, mumkin bo`lgan navigatsiya tizimlaridan foydalanish hisobiga soddalashtirilgan ko`p sonli axborot tarmoq resurslaridir.

Internet global` komp`yuter tarmoqlarining foydalaniladigan ta`limiy mexanizmlari, hisoblanadi. Yangi texnologiyalarni foydalanishda zarur muammolar o`zgarishsiz ta`limning rivojlanishini bildiradi, shuning uchun mashinada o`qituvchi va o`quvchilar, xuddi, insonlarda hamma vaqt uchrashish, fikrlar almashish va boshqa zarurlari bo`lishidek, bor bo`lishini ta`kidlaydi. U bu muammoni o`qitishning kunduzgi shaklida masofaviy ta`lim texnologiyalarini foydalanish orqali echish mumkin deb hisoblaydi. Bu yo`lni davom ettirib, ta`limning an`anaviy, kunduzgi ta`lim va sirtqi, masofaviy turlarini birlashtirish va ta`limning yangi shaklining to`g`lishiga olish kelish mumkin.

O`qitishda komp`yuter texnologiyasi “Bilish” so`zinig ma`nosini jiddiy ravishda o`zgartiradi. “Xotirada axborotni to`plash” tushunchasi “axborotga ruxsat olish jarayoni” ga aylantiriladi.

O`qitishda komp`yuterdan foydalanishda ko`pgina ijobiy vaziyatlarga qaramasdan, o`quv jarayoniga komp`yuterni foydalanishni asosiy muammolar sifatida e`tibor berish mumkin emas. Qiyinchiligi shundan iboratki, ko`nikib qolgan o`quv jarayoniga komp`yuterni oddiy o`rnatmoq va u ta`limda inqilob qilishiga umidvor bo`lish mumkin emas. Komp`yuter ta`limga yosh, baqquvvat vosita sifatida uzviy kirib kelishida ta`lim texnologiyasini umuman olganda boshqacha loyihalashtirish, o`quv jarayoni kontseptsiasining o`zini o`zgartirish kerak. O`quv jarayonining aniq kontseptsialari va nazariyalariga suyanib, komp`yuter texnologiyasi bilan muammolarning tarixiy, psixologik va falsafiy jihatlarini e`tiborga olinishi bilan ta`lim infrastrukturasining birlashishini amalga oshirmoq kerak.

Bundan kelib chiqadiki, komp`yuter texnologiyalaridan foydalanishda, shu jumladan dasturiy vositalarda, maktablarda “Texnologiya fani” fanini o`qitish jarayonida va mamlakatimizdagi pedagogik institut va universitetlarida “Texnologik ta`lim” mutaxassislar tayyorlashda ko`pgina usullardan nima to`plaganini belgilab olish kerak.

Maktab o`quvchilarining faoliyatining har xil o`quv texnologik ko`rinishlariga va didaktik vositalarga, texnologiya fani o`qituvchisi axborot tayyorgarligi jarayonida yuz beradigan munosabatlarga bog`liq aniq metodikalar zarur. Bu kabi vositalar “Texnologiya va dizayn” yo`nalishi va “Gazlamalarga, oziq-ovqat mahsulotlariga ishlov berish texnologiyasi va dekorativ-amaliy ijod” kabi ixtisosliklarga muvofiq ishlab chiqilsa va texnologiya fani darslarida muvaffaqiyat bilan qo`llaniladi.

G.S.Grinberg ko`pchilik odamlar o`zlashtirishi zarur bo`lgan, komp`yuter texnologiyalarining to`rt xili borligini belgilaydi. Bularga:

1. Matnli axborot bilan ishlash.
2. Oddiy hisob-kitob ko`paytirish.
3. Internet global` komp`yuter tarmoqlarida ishlash.
4. Komp`yuter grafikasi.

A.R.Galustov, Internet ta`limiy resurslarini texnologiya fani darslari jarayonida qo`llashni tahlil qilib, o`qitish jarayonida Internetdan texnologiyalaridan foydalanib – o`quvchilar bir vaqtning o`zida tayyor elektron hujjatlar “Dun`yo” sidan (kasb-hunar turlari) xabardor bo`lib mahoratlarini oshiradi, agarda shular bo`lsa:

- eng yaxshi axborotlarni o`zlashtirish uchun tasavvurlarida taqdim etilganlardan (matn, grafika, ovoz, animatsiya) tanlashni amalga oshirish;
- axborotni topish, o`zgartirish, saqlash, jo`natish; - Internetning har xil kommunikatsion xizmatlarida bevosita (ICQ,) ishlash va vositali ravishda muloqat (elektron pochta, forumlar, telekonferentsiyalar) qilish;
- har xil dasturiy ta`minotlardan foydalanish, masalan, gipermedia resurslarini yaratish uchun asboblari, masalan, ta`limning interfaol muhiti ko`rinishida;
- Internetda kelajakda joylashtirish uchun axborot ta`limiy resurslar qurishning didaktik va ergonomik tamoyillarini hisoblab chiqish.

Hozirgi paytda texnologiya fani doirasi bilan yangi standart muvofiqligida maktab o'quvchilarning axborot texnologik tayyorgarligi faqat boshlang'ich maktablarda olib boriladi. Bu esa, bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining pedagogik faoliyatida bilimlarni o'rganish va foydalanishda zamonaviy yo'nalishlar bo'lgan axborot resurslaridan foydalanish texnologiyalarini ishlab chiqish dolzarb ekanligi bilan bog'liq.

2.2. Texnologiya fanining kasb tanlashga yo'llash bo'limini o'qitish metodikasi

Umumiy o'rta ta'limda texnologiya fani fanining kasb tanlashga yo'llash bo'limi o'quv dasturining 8 – 9 – sinflarida aks etgan. Taqvim mazu rejadagi 8 – sinflarda 4 soat, 9 – sinflarda 3 soat quyidagi mavzular kesimida o'qitiladi.

8-sinf

TEXNOLOGIYA VA DIZAYN YO'NALISHI

№	Kasb tanlashga yo'llash	4 soat
1	Inson hayotida kasbning o'rni. Kasb-hunar egallashda inson salomatligiga qo'yilgan talablar	1 soat
2	Kasblar tasnifi, kasblarda mehnat turlarining ta'rifi.	1 soat
3	Kasbni to'g'ri tanlashning mohiyati va istiqboli. Kasb tanlashda shaxs, shaxsiy qiziqish, mayl va qobiliyat	1 soat
4	Kasbga anlashdagiv onglilik va mustaqillik. Kasbning murakkablik omillari. Kasbiy o'z-o'zini anglash va kasbiy qiziqishni aniqlash usullari Nazorat ishi №2	1 soat

9-SINF

TEXNOLOGIYA VA DIZAYN YO'NALISHI

№	Kasb tanlashga yo'llash	8 soat
1	Kasb tanlashga yo'llash texnologiyasi. “Professiogramma”, “Psixogramma”, “Kasb tanlash varaqasi” va boshqalar	1 soat

2	Kasbga doir shaxsiy reja tuzish. Kasbiy qiziqish va moyilliklarni aniqlash bo'yicha amaliy mashqlar bajarish. Tanlangan kasb-hunarga doir ma'lumotlar to'plash va tahlil qilish. Nazorat ishi №2	1 soat
3	“Men tanlagan kasbni egallashda kelgusidagi rejalarim” mavzusida ijodiy ish taqdimoti, ijodiy loyihasini tayyorlash	1 soat

8 – sinf 32 – Dars mashg'uloti Sana _____

Mavzu:	Kasb-hunar egallashda inson salomatligiga qo'yilgan talablar.
Maqsad, vazifalar	Darsning ta'limiy maqsadi: Kasb-hunar egallashda inson salomatligiga qoyilgan talablar tushunchalarini o'quvchilarga uyg'otish. Darsning tarbiyaviy maqsadi: O'quvchilarni kasb tanlashdagi salomtlik, jamiyatimiz ehtiyojlari, uning axloqiy printsiplari bilan tanishtirish. Darsning rivojlantiruvchi maqsadi: Dars faoliyati davomida o'quvchilar mustaqil fikrlashini takomillashtirib, qobiliyatini rivojlantirib borish.
O'quv jarayonining mazmuni	Hozirgi kunda yoshlarni kasb va kasbga yo'naltirishdan maqsad o'sib kelayotgan barkamol avlodni ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlash.
O'quv jarayonini amalgam oshirish texnologiyasi	Usul: Suhbat o'tkazish, qiziqishlar kartotekasi metodi. “O'zing o'yla, o'zing top. Shakl: amaliy mashg'ulot. Vosita: kompyuter, slaydlar, ko'rgazmali qurollar, namunalar. Nazorat:“B/B/B” metodi, “Zinama-zina” metodi.

	Baholash: Reyting tizimi asosida.
Kutilayotgan natijalar	O'qituvchi: Mavzuni qisqa vaqt ichida barcha o'quchilar tomonidan o'zlashtirilishiga erishadi. O'quvchilarning mashg'ulot davomidagi faolligini oshira oladi. Ularda darsga, kasb-hunarga nisbatan qiziqish uyg'otadi. Amaliy mashg'ulotlar jarayonida barcha o'quvchilarni baholashga erishiladi. O'quvchi: Mavzu boyicha yangi bilimlarni egallaydi. Yakka holda va guruh bo'lib ishlashni o'rganadi. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalari rivojlanadi. O'z-o'zini nazorat qilishni o'rganadi. Qisqa vaqt ichida ko'p ma'lumotga ega bo'ladi va baholanadi.
Uyga vazifa	O'qituvchi: Mavzu boyicha qo'shimcha yangi ma'lumotlar topish. Mavzuga oid test, tarqatma materiallarini va ko'rgazmali qurollarni tayyorlash. Kelgusi dars jarayoniga tadbqiq etish. O'quvchi: Mavzusi boyicha olgan bilim, ko'nikma va malakalarini amaliy mashg'ulot jarayonida qo'llash, mustaqil fikrlash. O'tilgan mavzuni gapirib berish.
Kelgusi rejalar	O'qituvchi: Yangi pedagogik va AKT texnologiyalarini o'zlashtirish, dars jarayoniga tadbqiq etish, takomillashtirish. O'z ustida ishlash. Pedagogik mahoratni oshirish. O'quvchi: Kasblar haqida qo'shimcha materiallar bilan tanishib, ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi. O'zining va guruh fikrini tahlil qilib, bir yechimga kelish malakasini hosil qiladi.

Darsning texnologik xaritasi va o'tkazilish ishlanmasi

Mashg'ulotning bosqichlari

Bosqichlar	Mazmuni	Metodlar	Vaqt
1-bosqich	Tashkiliy qism: Salomlashish, davomatni aniqlash, o'quvchilarni darsgatayyorgarligini	Suhbat o'tkazish	5

	tekshirish, mashg'ulotning borishi haqida tushuncha berish.		
2-bosqich	O'tigan mavzuni mustahkamlash: O'quvchilarga o'tilgan dars mavzusi bo'yicha bahs-munozara tashkil qiladi. Mavzuga oid muammoli savollarni tarqatma material sifatida o'quvchilarga tarqatadi. O'quvchilarga berilgan topshiriqlarni tekshiradi va baholaydi.	Bahs munozara	10
3-bosqich	Yangi mavzu bayoni. Mavzuning maqsadi, asosiy ma'no-mazmuni, qo'llaniladigan ish usullari o'quvchilarga tushuntirib beriladi.	O'zing o'yla, o'zing top	10
4-bosqich	Yangi mavzu yuzasidan o'quvchilar bilimini mustahkamlash: "O'zingo'yla, o'zing top, "B/B/B" metodlari asosida o'quvchilar bilimini mustahkamlash.	O'zing o'yla, o'zing top, B/B/B metodi	5
5-bosqich	Amaliy mashg'ulot: O'quvchilarni mavzuga oid bilimlarini mustahkamlash maqsadida qiziqishlar kartotekasi topshirig'i beriladi.	Qiziqishlar kartotekasi metodi	10
6-bosqich	Uyga vazifa berish, darsni yakunlash.	Zinama-zina metodi	5

YANGI MAVZU BAYONI

Mavzu: Kasb-hunar egallashda inson salomatligiga qo'yilgan talablar

Agar kishining salomatligi yaxshi bo'lmasa, u muayyan kasbda ishlash uchun shifokorlar xulosasi bo'yicha yaroqli emas, deb topilgan bo'lsa o'sha kishi mazkur kasbga yaroqsiz deb hisoblanadi. Buning ma'nosi shuki, kishi mazkur ishni yo mutlaqo bajara olmaydi yoki bu ish uning sog'lig'idagi (hozircha, balki, uncha sezilmaydigan) o'zgarishlarni ko'paytirib, dardini kuchaytiradi. Kishining salomatligi ma'lum bir kasb talablariga muvofiq kelish-kelmasligini aniqlash —

shifokorning vazifasidir. Shuning uchun ham ishga yoki ta'lim muassasiga kirayotgan har bir kishi, albatta, tibbiy ko'rikdan o'tadi. Lekin ko'pincha shunday bo'ladiki, kishi o'zining nazarida kasb tanlab bo'lganidan keyin bunday tibbiy ko'rik amalga oshiriladi. Keyin afsuslanib yoki iztirob chekib yurmaslik uchun o'z vaqtida shifokor bilan maslahatlashib olish muhim ahamiyatga egadir.

Mehnat sharoitining odam organizmiga ko'rsatadigan ta'siri boyicha kasblarni to'rt guruhga ajratish mumkin.

Birinchi guruhga mehnat sharoiti maishiy kasblarga yaqin bo'lgan kasblar kiradi. Misol tariqasida soat ishlab chiqarish, maishiy xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan kasblarni keltirish mumkin. Bu ishchi kasblari ichida eng ko'p sonli guruhdir.

Ikkinchi guruh kasblari, masalan, oshpazlik kasbi ishlab chiqarish omilining mo'tadil yoki notekis ta'sir etishi bilan bog'liq bo'lgan kasblardir. Bunday kasblar boyicha ishlagan vaqtda organizmga vaqtincha yuqori darajadagi havo harorati, namlik va boshqa shu singari omillar ta'sir ko'rsatadi. Bu esa tomir urishining tezlashib ketishiga, ter ajralib chiqishining kuchayishiga sabab bo'ladi. Binobarin, bunday kasblarni faqat termoregulyatsiyasi yaxshi bo'lgan kishilargagina, shuningdek, yurak-tomir sistemasida, nafas organlarida kasalligi bo'lmagan kishilargagina tavsiya etish mumkin.

Uchinchi gruppaga har xil noqulay ishlab chiqarish omillarining yig'indisi xarakterli bo'lgan kasblar kiradi. To'qimachi kasbini bunga misol qilib keltirish mumkin. Yuragi, o'pkasi, eshitish organlari, tayanch harakat apparati kasal bo'lgan (yoki kasallik alomatlariga moyillik sezilgan), ko'zi yaxshi ko'rmaydigan kishilar uchun bu kasb to'g'ri kelmaydi.

To'rtinchi gruppaga og'ir va zararli mehnat sharoiti bilan bog'liq bo'lgan kasblardan iboratdir. Masalan, elektr payvandchi, po'lat quyuvchi va boshqalar ana shunday kasblar qatoriga kiradi.

Bizning davlatimiz har bir kishining sog'lig'i to'g'risida g'amxo'rlik qiladi, kasb kasalliklarining oldini olish boyicha tadbirlar tizimli amalga oshiriladi. Kichik

mutaxassislarga bir qator engilliklar yaratib berilgan ishlab chiqarish korxonalari hamda kasb-hunarlarning royxati belgilab chiqilgan va tasdiqlangan. Mana shu royxatga kirgan kasbda ishlovchi kishilar tegishli imtiyozlardan foydalanadilar: ular uchun qisqartirilgan ish kuni, qo'shimcha ta'til, parhez taomlar, 45—50 yoshdan boshlab pensiya bilan ta'minlashni xuquqi va boshqa shu singari imtiyozlar berilgan.

Biror kasb tanlanayotgan vaqtda tibbiyot ko'rsatkichlarining to'g'ri kelmasligi eng avvalo kasallik xarakteri bilan belgilanadi. Tanlangan kasbga sizning sog'lig'ingiz to'g'ri kelish-kelmasligi haqidagi xulosani faqat shifokor berishi mumkin.

Biroq, shuni ham nazarda tutish kerakki, turli kasalliklarga organizmning qarshilik ko'rsatish imkoniyatlari juda katta bo'lib, odam o'zi sevgan kasbini egallash uchun butun iroda kuchini ishga solib kasallikni engishi mumkin.

Har bir kishi yoshligidan boshlab o'z salomatligi to'g'risida oylashi, gigiena sohasidagi bilimlarini, birinchi tibbiy yordam ko'rsatish malakalarini egallab olishi, sog'lom turmush tarzi bilan yashashni o'rganib olmog'i kerak.

Organizumni chiniqtirish, sport bilan shug'ullanish, mehnat va dam olish, ovqatlanish rejimiga rioya qilish, o'z bo'sh vaqtini oqilona tashkil etish va boshqa shunga o'xshash tadbirlar jismoniy jihatdan baquvvat va sog'lom bo'lib o'sishning zarur shartlaridir. Sog'lom bo'lib o'sishni istagan kishi spirtli ichimliklar ichish va chekish singari yaramas odatlardan batamom voz kechishi kerak, albatta. Chunki ular organizmga nihoyatda zararli ta'sir ko'rsatadi: sog'liqni ishdan chiqaradi, qiziqish doirasini toraytiradi, aqliy aktivlikni pasaytiradi va nihoyat, shaxsni tanazzulga olib keladi.

Kasbga yaroqlilik. Kasbga yaroqlilik - odam bilan uning ishi kasbi o'rtasidagi o'zaro muvofiqlikdir. Ayni mana shu muvofiqlik bo'lgan taqdirdagina: «odam — kasb» formulasini ro'yobga chiqarish imkoni tug'iladi. Mana shunday o'zaro munosabat xususida to'xtalib o'tamiz.

Har qanday kishining o'zigagina xos bo'lgan muayyan shaxsiy fazilatlar, xususiyatlar mavjud bo'ladi. Tanlanayotgan kasbning shaxsga nisbatan qoyadigan talablariga mana shu shaxsiy sifatlar qay darajada mos kelishiga qarab odamning u yoki bu kasbga yaroqliligi to'g'risida bir qarorga kelish mumkin.

Kasbga yaroqlilikni to'rt xil darajaga bo'lib, ularni bir-biridan farq qilish mumkin.

1. Yaroqsizlik (mazkur kasbga yaroqsizlik). U vaqtincha ham bo'lishi mumkin yoki amaliy jihatdan royobga chiqmaydigan bo'lishi ham mumkin. Kishining salomatligi yomon bo'lganda, u yoki bu sohadagi ishga o'sha kishining sog'lig'i, shifokorlarning nuqtai nazariga qaraganda to'g'ri kelmaydi, deb topilgan hollarda kasbga yaroqsizlik to'g'risida gapirish mumkin.

Tanlangan kasbga sog'liqning to'g'ri kelmasligi xususidagi ushbu guruh to'g'risida biz bundan oldingi paragrafda mufassal to'xtalib o'tgan edik. Lekin tanlangan kasbga faqat sog'liq emas, balki bundan boshqa omillar ham monelik qilishi mumkin. Gap shundaki, butun bir guruhni tashkil etuvchi bir qator kasblar odamga nisbatan juda katta talablar qoyadi. U kasblarga faqat maxsus qobiliyatga ega bo'lgan kishilargina muvofiq kelishi mumkin. Agar kishida mana shunday maxsus qobiliyat yo'q bo'lsa, uning o'rnini hech narsa bilan to'ldirib bo'lmaydi. Bunday hollarda kishidan o'z kasbiga nisbatan mutlaqo yaroqli bo'lish talab qilinadi, deb aytadilar.

Bajaradigan ishlari jarayonida odamlarning sog'lig'i va hayoti uchun xavfli bo'lgan, kutilmagan vaziyatlar sodir bo'lishi ehtimol to'tilgan kasblar (uchuvchi, xirurg, energosistemalar operatori va boshqalar) vakillari uchun o'z kasbiga ana shunday mutlaqo yaroqli bo'lish sharti qo'llaniladi. San'at bilan bog'liq bo'lgan kasblar to'g'risida ham xuddi mana shu gaplarni aytish mumkin: masalan, agar kishining tasviriy san'at sohasida ishlash uchun qobiliyati bo'lmasa, rassom, arxitektor, haykaltarosh bo'lib etishishi amri-maholdir.

2. Yaroqlilik (u yoki bu kasb yohud guruhga yaroqlilik). Kasbga yaroqlilikning ushbu darajasi shu bilan ajralib turadiki, bunda biror sohadagi

mehnatga nisbatan monelik qiluvchi omillar bo'lmaydi, lekin ayni mahalda kishida mazkur kasbga yaqqol ko'zga tashlanib turgan mayllar ham bo'lmaydi. «Siz mana shu kasbni tanlashingiz mumkin. Ajab emas, siz shu sohada yaxshi mutaxassis bo'lib etisharsiz» - deb tasalli berishadi, bu kasbni tanlagan kishilarga. Bu jihatdan kasbga yaroqlilik darajasini ham yuqoridagi ta'rifdan bilib olish mumkin.

3. Mos kelish (u yoki bu faoliyat sohasiga odamning mos kelishi). Bunday hollarda odamning ayrim shaxsiy fazilatlarini ko'rsatib o'tish mumkin. Bu fazilatlar muayyan kasb yoki kasblar guruhi talablariga aniq (shubhasiz) mos keladi. Masalan, biror kishida muayyan bir sohada u yoki bu mehnat ob'ektiga masalan, biologiya, texnika va hokazo ob'ektlarga nisbatan qiziqish bo'lishi yoxud biror sohada o'zini amaliy ishda sinab ko'rish vaqtida ba'zi bir yutuqlarni qo'lga kiritgan kishilardagi muvofiqlik, o'z kasbga mos kelish buning misolidir. Kasbga yaroqlilikning bu darajasidagi kishilarga nisbatan shunday deb murojaat qilish mumkin: «Siz mana shu kasbni tanlasangiz bo'ladi, siz yaxshi mutaxassis bo'lib etishishingiz juda mumkin».

4. Havas (mazkur kasbga, faoliyat sohasiga). Ishga havasi (rag'bat) bo'lgan bunday kishini mehnatchi sifatida inson tarakqiyotining mazkur bosqichida kasbga yaroqlilikning oliy darajasi deb hisoblash mumkin. Bu yerda gap odamni boshqalardan ajratib turadigan sifatlar to'g'risida bormoqda. Kishi taxminan o'zi bilan bir xil sharoitda ishlayotgan va o'qiyotgan tengdoshlaridan yaqqol ajralib turadi. Kasbga yaroqlilikning bunday darajasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin: «Siz faoliyatning shu sohasi-da, ha, ayni mana shu sohada yaxshi mutaxassis bo'lib etishasiz».

Kasbga yaroqlilik tug'ma sifat emas. U mehnat faoliyatida shakllanib boradi. Mehnat jarayonida faqat kasbiy idrok, xotira va tafakkur rivojlanibgina qolmay, odamda muayyan xulq-atvor tipi ham, uning jamoada ishlashga xos yo'nalishi ham, talabchanligi ham, burchni anglash hissi ham, shaxsning boshqa shu singari fazilatlar ham rivojlanib boradi.

Ko'pchilik kasblarda ularga yaroqlilik masalasida odamga mutlaq talablar qoyilmaydi; unda etishmaydigan zarur fazilatlar, xususiyatlar, qobiliyatlar o'rnini boshqalarini rivojlantirish hisobiga qoplash mumkin.

Yuqorida aytilganlardan shunday xulosa kelib chiqadiki, odamning kasbga yaroqliligi o'zgaruvchan xarakteristikadir. Kasbga yaroqlilikni shakllantirish bu faqat odamdagi muayyan fazilatlarni (masalan, o'z-o'zini tarbiyalash vositalari bilan) rivojlantirishdangina iborat bo'lib qolmay, shu bilan birga mehnat sharoitini, ishlab chiqarish vositalarini o'zgartirishni ham taqozo etar ekan.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Kasb tanlash vaqtida nima uchun salomatlikni hisobga olish kerak?
2. Organizm uchun qanday ishlab chiqarish omillari noqulay omillar hisoblanadi?
3. Siz tanlagan kasbdagi mutaxassislar qanday mehnat sharoitida ishlashini aniklang. U kasbni qaysi guruhga kiritish mumkin?
4. Kishining kasbga yaroqliligi to'g'risida uning qanday fazilatlariga qarab baho berish mumkin?
5. Siz kasbga yaroqlilikning qanday turlarini bilasiz? Mutlaqo yaroqlilikni talab qiladigan kasblarni sanab bering?
6. Kasbga yaroqlilikni shakllantirib bo'ladimi? Misollar keltiring.

Siz o'zingiz tanlagan kasb uchun qanday fazilatlarni muhim deb hisoblashingizni aytib bering?

№	Mavzu yoki tushunchalar	Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim
1	Kasb-hunar egallashda salomatlik talabi			
2	-//-			
3	-//-			

““O’zing o’yla, o’zing top, o’zing yasa” interfoal usuli asosida amaliy mashg’ulotni tashkil etish”

8 - sinf 29 – Dars mashg’uloti Sana _____

Mavzu: Kasb tanlashdagi onglilik va mustaqillik.

Dars maqsadi:

Ta’limiy: O’quvchilarga kasb tanlashdagi onglilik va mustaqillik to’g’risida ma’lumotni o’rgatish.

Tarbiyaviy: O’quvchilarni milliy hunarmandchilik an’analariga sodiq qilib tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi: O’quvchilarda kasb tanlashdagi onglilik va mustaqillik ko’nikmalarini rivojlantirish.

Moddiy texnik jihatdan jihozlash va ko’rgazmali qurollar: mavzuga oid buklet, slaydlar, kompyuter, halq hunarmandchiligi buyumlari namunalari

Foydalaniladigan metodlar: “Aqliy xujum”, “kichik guruhlarda ishlash”, “Muammoli ta’lim”, og’zaki, ko’rgazmali

Dars rejasi:

1. Tashkiliy qism-5
2. O’tilgan mavzuni takrorlash-10
3. Yangi mavzuning bayoni-20
4. Yangi mavzuni mustahkamlash-5
5. Uyga vazifa berish-5

Mashg’ulotning borishi

1. Tashkiliy qism. Salomlashish, davomatni aniqlash, navbatchini tayinlash, o’quvchilarning mashg’ulotga tayyorgarlik darajasini nazorat qilish.

2. Uyga berilgan vazifalarni tekshirish.

3. O’tilgan mavzuni takrorlash.

4. Yangi mavzuning bayoni.

5. Yangi mavzuni mustahkamlash.

6. Uyga vazifa berish.

Yangi mavzuning bayoni: Kasb tanlashdagi ongillik va mustaqillik

Mehnat faoliyatini boshlash uchun kasb tanlashda bu ishga ongillik ravishda yondashmoq va uni mustaqil ravishda hal qilmoq kerak. Muayyan iqtisodiy tumanning xodimlarga bo'lgan ehtiyoji, tanlanadigan kasb talablariga kishining qiziqishi, mayllari, qobiliyati, sog'lig'i muvofiq kelishi, konkret mehnat sohasida o'ttirilgan amaliy faoliyat tajribasi, mehnat sharoiti kabi muhim omillar hisobga olinsagina kasbni ongillik ravishda tanlangan deb hisoblash mumkin (1-jadval).

Kasb tanlashdagi mustaqillik deganda kishining bu sohadagi maksimal dahlsizligi, o'zining tashabbuskorligi to'la namoyon bo'lishi tushuniladi. Lekin bu, siz ishni yaxshi biladigan, tajribali kishilarning nasihatlariga quloq solmasligingiz kerak, degan ma'noni anglatmaydi, albatta. Bunda eng avvalo oiladagi katta yoshli kishilarning fikrlari nazarda tutiladi. Basharti, kasb tanlash to'g'risidagi masalada sizning va ota-onalaringizning fikri bir joydan chiqsa, bu yaxshi, albatta. Mabodo bunday hamfikrlik bo'lmasa, o'z imkoniyatlaringizni chamalab, sizdan kattaroq yoshdagi kishilarning fikr mulohazalarini tahlil qilib ko'ring. Shundan keyin o'z tanlangan kasbingiz foydasiga ishonchli dalillar keltirib fikringizni o'zgartirmaysiz yoki sizga bildirilgan etirozlar o'rinli bo'lsa, o'z qaroringizni o'zgartirasiz — bu masalani hal qilishda, albatta, o'zingiz mustaqil bir fikrga kelishingiz kerak.

Mustaqillikni o'jarlik bilan aralashtirib yubormaslik kerak. Mustaqil odam, o'jar kishidan farqli o'laroq, kimningdir unga beradigan maslahatlari o'zini to'g'ri yo'ldan adashtirib qoyadi, deb qo'rqmaydi, u o'sha maslahatlarning foydasini tushunadi, dono fikrlarni o'ziga qabul qiladi, shosha-pisha bir xulosaga kelishni oylamaydi.

Mehnat sharoitlari tasnifi 1-jadval

MODDIY SHAROITLAR	Ish haqi, dam olishga yo'llanmalar, uy-joy bilan ta'minlash va boshqalar
----------------------	--

SANITARIYA-GIGIYENA SHAROITLARI	Haroratning keskin o'zgarishi, namlik, shovqin, tebranish, jismoniy zo'riqish, ko'zning, quloqning toliqib charchashi va boshqalar
PSIXOLOGIK SHAROITLAR	Xotiraning samarali ishlashi, tafak-kurning mustaqil va moslashuvchan bo'lishi kerakligi, irodaviy sifatlarning rivojlangan bo'lishi (dadillik, sabr-toqat, qat'iyat, o'zini tuta bilish) zarurligi va shu kabilar
IJTIMOIIY SHAROITLAR	Kasbiy va ijtimoiy jihatdan o'sishga erishish istiqbollari (razryadlar va klasslarning oshirilishi, ilmiy daraja yoki unvon olish, yuqori lavozimga ko'tarilish), jamoaga moslashib ketish
GEOGRAFIK SHAROITLAR	Kasbning qay darajada keng tarqalganligi: hamma yerda mavjudligi yoki cheklanganligi

Kasb tanlashda onglilik va mustaqillik odamning o'z qiziqishi, qobiliyatlari, irodaviy sifatlariga o'zi realistik baho berishini taqozo etadi. Bunday o'z-o'ziga baho berish har kimning ham qo'lidan kelavermaydi. Shuning uchun fan o'qituvchilarning, murabbiylarining fikrlariga quloq solish va amal qilish muhim ahamiyatga egadir. Chunki har bir pedagog sizning xulq-avtoringiz, ish faoliyatingizni kuzatib borib, qiziqishlaringiz, mayllaringiz xarakteringiz, qobiliyatingiz va mehnatga qay darajada tayyor ekaningiz to'g'risida hammadan ko'ra yaxshirok fikr bildirishi mumkin.

Ongli ravishda kasb tanlash degan gapning ma'nosi shuki, sizning har biringiz o'z imkoniyatlaringizni jamiyatimiz ehtiyojlari bilan, uning axloqiy printsiplari bilan taqqoslab ko'rishingiz kerak. Bunda faqat jamiyatning bugungi kundagi ehtiyojlari va imkoniyatlarinigina hisobga olish bilan cheklanibgina qolmay, shu bilan birga mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirishga qaratilgan tadbirlarini nazardan qochirmaslik muhimdir.

Mutaxassislarning bashorat qilishlariga qaraganda, sizning har biringiz o'z hayotingiz davomida 5 - 6 marta kasbiy bilim va malakalarni yangilashingizga to'g'ri keladi. Buning uchun esa mustahkam poydevor umumiy o'rta ma'lumot bo'lishi kerak. Ayni mana shunda bilimlar tizimi har qanday kasbiy faoliyatning negizini tashqil etadi, umumiy qobiliyatlarni hamda kasbiy jihatdan muhim ahamiyatga ega bo'lgan fazilatlarni rivojlantirishga yordam beradi, o'nlab turli mashg'ulotlarning tushunarli bo'lishini, mahoratni tez sur'atlar bilan o'stirishni ta'minlaydi, agar zarur bo'lsa faoliyat sohasini o'zgartirish imkonini beradi.

1. Kasb tanlash to'g'risida oylayotgan vaqtda qanday asosiy shart-sharoitlarni, vaziyatlarni hisobga olmoq kerak?

2. Nima uchun kishi o'zining butun mehnat faoliyati davomida o'z bilimini takomillashtirib, o'z qobiliyatini rivojlantirib borishi lozim?

3. O'zingiz mo'ljallagan kasbni nima uchun tanlaganingizni asoslab berishga harakat qiling.

O'quvchilarga uyga topshiriqlar beriladi

Mustaqil ravishda kasb tanlash rejasini tuzish.

III BOB. TAJRIBA-SINOV ISHLARINI O'TKAZISH VA NATIJALAR TAHLILI

3.1 Tajriba-sinov ishlarining mazmuni va o'tkazish metodikasi

Tajriba-sinov ishlarining shakllantiruvchi bosqichida ta'lim muassasalarida kasb tanlash jarayonida o'quvchilarni tarbiyalash darajasi tahlil qilindi. Bunda tajriba-sinov ishlari tajriba guruxida biz taklif etgan texnologiya asosida, nazorat guruhida esa an'anaviy dastur bo'yicha amalga oshirildi.

Biz o'quvchilar tomonidan bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish sifatini baholashning umumlashgan ko'rsatkichi oxirgi natija bo'yicha taqqoslashdan foydalandik. Bunda o'quvchilar bilim va ko'nikmalarini o'zlashtirish sifatini baholashning umumlashgan ko'rsatkichi oxirgi natija bo'yicha taqqoslashdan foydalandik. Bunda o'quvchilar bilim va ko'nikmalarini keltirgan o'rtacha

o'zlashtirish bali orqali baholash eng samarali yo'nalish hisoblanib, u guruhlardagi o'rta o'zlashtirish holatidan quyidagi xulosaga keldik.

1. Ma'lumki, o'quvchilar kasbga oid bilimlarning asosiy hajmini umumiy o'rta ta'lim maktabining 8-9 sinflarida texnologiya fani jarayonida egallaydilar.

Kuzatishlar natijasida dastlabki paragraflarda bu jarayonning muhimligini ta'kidlovchi ikki omil tahlil qilib berildi, ya'ni

Birinchidan: kasbga yo'naltirish ishlari to'g'ri yo'lga qo'yilganida o'quvchilar o'z qiziqishlari, mayllari, qobiliyatlari salomatligi va boshqa sifatlaridan kelib chiqib kelajagini to'g'ri belgilab olishini ta'minlaydi;

Ikkinchidan: Jamiyatimizning har bir jabhasida o'z kasbini mahorat darajasida egallagan, mustaqil va ijodiy fikrlovchi mutaxassislariga ega bo'ladi.

2. Ta'lim muassasalarida kasb tanlash jarayonida o'quvchilarni tarbiyalash mehnat va kasbga yo'llash mashg'ulotlarni tashkil qilish maqsad va vazifalari, o'quvchi kasbiy sifatlarini dastlabki pedagogik - psixologik tashhis qilish, tanlagan kasbi to'g'risida axborot berish, o'quvchi shaxsini ijtimoiy – kasbiy moslashtirish, kasbiy maslahatlar, kasbiy-iqtisodiy tarbiya metodlarini qo'llash yo'llari ko'rsatib berildi. Shu bilan birgalikda darsdan tashqari mashg'ulotlarni, ommaviy shakldagi o'quvchilarning mehnat birlashmalari kabi mashg'ulot shakllaridan foydalanishga oid tavsiyalar berildi.

Shuningdek, ta'lim muassasalarida darsda va darsdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil qilishda kasb tanlash jarayonida o'quvchilarni tarbiyalash ishlari texnologiyasining funksional tuzilmasi ishlab chiqildi. Unga ko'ra ta'lim jarayonini loyixalash va maqsadini belgilash bosqichlarining tashqi (obektiv) omillar, ta'lim jarayoni (ta'lim maqsadi, mazmuni, shakl, metod va vositalari), ichki (subektiv) omillar ta'sirida amalga oshirilish mazmuni ko'rsatib berildi.

3. Darsda va darsdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil qilish o'quvchilarni kasbga yo'llash jarayoni bilan uyg'unligini ta'minlash mexanizmini ishlab chiqish maqsadida o'quvchilarni kasbga yo'llash tuzilmasidan foydalanish. Tuzilmaning ikki asosiy tashkil etuvchisi: texnologiya fani darslari jarayoni va darsdan tashqari

mashg'ulot turlarining bir-birini rivojlantirishini ta'minlash uchun ularning xar bir bo'g'inining o'zaro bog'liqlik asoslari ishlab chiqilgan. Bu vazifani amalga oshirishda texnologiya fani davlat ta'lim standarti ishlab chiqilgan kasbga moslashtirishga asoslangan darsdan tashqari mashg'ulotlarning umumiy tuzilmasi asos sifatida olindi.

4. Ta'lim muassasalarida kasb tanlash jarayonida o'quvchilarni tarbiyalash texnologiyasi hamda to'garaklar o'quv dasturlarini amaliyotga tadbiq etishning eng samarali yechimi sifatida kasbga moslashtirish ishlarini tashkil qilishda darsdan tashqari mashg'ulotlar mazmunini tanlashning tashkiliy-pedagogik mezonlari ishlab chiqildi. Ushbu mezonlarda o'quvchiga tushuncha berilayotgan kasbning turlari va nomlari b'yicha real mavjud kasblarning miqdoriga nisbatan optimal munosabatni saqlash, kasb tanlash ishida mahalliy va mintaqaviy ehtiyojlar asosida kasbga tanlashning ustuvorligi, bo'lajak kasb turi bilan bog'liq faoliyatning mazmuni va tuzilmasini asoslash.

5. Amalga oshirilgan tajriba - sinov ishlari natijasida o'quvchilarni darsda va darsdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida kasb tanlashda tarbiyalashning tavsiya etilayotgan pedagogik texnologiyasini ta'lim munosabatlar joriy etilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shu sababli ham uzluksiz ta'lim tizimining umumiy o'rta ta'limi bosqichini ilmiy asosda chuqur o'rganish va bu ilmiy tadqiqot ishlari olib borilishi davrimiz ta'lim tizimi oldiga qo'yilgan dolzarb vazifa hisoblanadi.

3.2 Olingan natijalar tahlili

Tajriba-sinov ishlari 2020 - 2021 o'quv yilida Amudaryo tumani 30-son umumiy o'rta ta'lim maktabida uch bosqichda amalga oshirildi:

1. Boshlang'ich tajriba - sinov ishlarining dastlabki bosqichida nazariy dars mashg'ulotlarida kasb tanlash jarayonida o'quvchilarni tarbiyalashga oid bilimlardan foydalangan holda o'quvchilarga berilgan ta'lim mazmuni asosida ularning shakl va vositalari ishlab chiqildi.

2. Asosiy tajriba-sinov bosqichida kasb tanlash jarayonida AKT dan foydalanish mazmuni va metodlari nazariy, amaliy dars va darsdan tashqari mashg'ulotlar faoliyatida sinab ko'rildi.

3. Yakuniy tajriba-sinov bosqichida kasb tanlash jarayonida o'quvchilarni AKT foydalanish ko'nikmalarining shakllanganlik natijalari tahlil qilindi.

Tadqiqot ishi yuzasidan amalga oshirilgan tajriba-sinov ishlarida umumiy o'rta ta'lim maktabidan 29 nafar o'quvchi ishtirok etdi (3.1.- jadval).

3.1 jadval

№	Tajriba-sinov maydonlari	Tajriba guruhi 9 – A sinf o'quvchilari soni	Nazorat guruhi 9 – B sinf o'quvchilari soni	Jami o'quvchilar soni
1	Amudaryo tumani 30- umumiy o'rta ta'lim maktabi	15	14	29
2	Jami	15	14	29

Asosiy tajriba bosqichida umumiy o'rta ta'lim maktabi "Texnologiya fani" darslari tajriba guruh o'quvchilari uchun BMI ishining mavzular rejasi asosida, nazorat guruhlarida esa amalda bo'lgan mavzuiy rejalar to'plami asosida o'tildi. Amalga oshirilgan "Texnologiya fani" samaradorligini baholash va o'zaro taqqoslash maqsadida topshiriq varaqalari ishlab chiqildi (1-ilova).

O'tkazilgan ilmiy-tadqiqotda tajriba va nazorat guruhlarida kasb tanlash jarayonida o'quvchilarni AKT dan foydalanish topshiriqlariga bergan javoblari natijalarini tahlil etamiz.

Kasb tanlash jarayonida o'quvchilarni AKT dan foydalanish sifatlarini shakllanlanganlik darajalari

3.2-jadval

№	Baholash mezonlari	Umumiy o'rta ta'lim maktabi
---	--------------------	-----------------------------

		Tajriba guruhi		Nazorat guruhi	
		Tajriba boshi	Tajriba oxiri	Tajriba boshi	Tajriba oxiri
	Guruh o'quvchilari	15	15	14	14
1.	“5”	3	5	2	3
2.	“4”	2	7	2	4
3.	“3”	10	3	8	7
4.	“2”				
	Sifat ko'rsatkich	33%	80%	26%	50%

O'quvchilarning AKT dan foydalanish sifat darajasi bilimlari bo'yicha topshiriq varaqasiga bergan javoblari tahliliga ko'ra (3.2-jadval) aytish mumkinki, Tajriba guruhi a'zolari maksimal balning 80,8 foizini olishga muvvafaq bo'lganlar, nazorat guruhida bu ko'rsatkich 50 foizga teng. Ular orasidagi farq 30 foizni tashkil etdi.

X U L O S A

1. Kasb-hunar maktabi o'quvchilarning ijtimoiylashuvida kasbiy tarbiyani shakllantirish jarayonida AKT dan foydalanish bilan bog'liq nazariy va amaliy tadqiqot natijasida “Kasb-hunarga yo'naltirish” tushunchasi mazmuni va uni ishlab chiqishning asosiy yo'nalishlari aniqlandi, bu muomalarni pedagogik tayyorgarligiga nisbatan qo'llash shart-sharoitlari belgilanadi.

2. Tadqiqotning asosiy maqsadi kasb-hunar maktablari o'quvchilarining kasbiy tarbiyasini shakllantirishda AKT dan foydalanish darajasi bo'yicha ta'lim masalalarini, ularni hal etish shart sharoitlarini belgilashdan ham iborat bo'ladi.

Tadqiqotda psixologik-pedagogik nuqtai nazardan kasbiy tarbiyani shakllantirishda AKT dan foydalanish darajasi o'ziga xosliklari, o'quv jarayonining didaktik ta'minoti, didaktik ishlanmalar mohiyati va yo'nalishni ko'rib chiqilib, materiallarning kasbiy tarbiyani shakllantirishning maqsad va vazifalariga muvofiqligi ilmiy asoslanadi.

3. Bizning nazariy qarashlarimiz asosida kasbga yo'naltirish mashg'ulotlari metodik ta'limoti shartlari aniqlandi va kasb-hunar maktablari o'quvchilarining kasb-hunarga yo'naltirishda AKT dan foydalanish imkoniyatlari belgilandi.

4. Tarbiya nazariyasi va amaliyoti tahlili shuni ko'rsatadiki, kasb-hunar maktablari o'quvchilarining kasblarni egallashda ijodiy xususiyat hosil bo'ladi. Bu xususiyatlarining har biri alohida farqlanuvchi belgilari, rahbarlik strukturasi va shartlariga mos keluvchi tomonlariga ega bo'ladi.

5. Kasb-hunar maktablari o'quvchilarining kasb-hunarga yo'naltirishda AKT dan foydalanishning deduktiv shartlari, usullari, bosqichlari, ko'rsatkichlari aniqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob halqimiz bilan birga quramiz. "O'zbekiston" 2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. "O'zbekiston" 2016.
3. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017—2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakat strategiyasi. 7 yanvar 2017 yil.

4. Karimov I.A. "Barkamol avlod- O'zbekiston taraqqiyotining poydevori", T.: "O'zbekiston". 1997y.
5. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" T: "Ma'naviyat", 2008y.
6. Davlatov K. Mehnat va kasb ta'limi tarbiyasi hamda kasb tanlash nazariyasi va metodikasi. – T.: «O'qituvchi», 1992.
4. Bespalko V.P. Pedagogika i progressivniye texnologii obucheniY. – M.: IRPO, 1995. – 336 s.
5. SH.S.Sharipov. ijodkorlik faoliyati texnologiyasi. Nizomiy nomidagi TD PU Toshkent. 2012 y – 36 b.
6. Sharipov SH. S. Talabalar ixtirochilik ijodkorligini shakllantirishining pedagogik sharoitlari. (Mehnat va kasb ta'limi fakutetlari misolida): Dis. ... ped. fan. nom. – T.: 2000. – 205 b.
7. SH.S.Sharipov, K.Davlatov, G.S.Nasriddinova.Kasbga yo'naltirishning ilmiy-pedagogik asoslari. O'quv qo'llanma. –Toshkent, 2007. 146 b.
8. Muslimov.NA, Mullaxmetov.R.G. Kasb tanlashga yo'llash o'quv qo'llanma Toshkent. 2007 – 159 b.
9. Sh.S.Sharipov. Kasb – hunar ta'limi tizimida o'quvchilar ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishning uzluksizligi. Toshkent "Fan" 2005 y. 129 b.
10. Muslimov.NA, Qo'ysinov.O.A. Kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta'limni tashkil etishning nazariyasi va metodikasi. Toshkent. Fan. 2009 y – 80 b.
11. Matchanov S. Umumta'lim tizimida adabiyotdan mustaqil ishlarni tashkil etish: Avtoref. dis. ... ped.fan.dokt. – T.:1998. – 42 b.
12. Tolipov O'., Razzoqov D., Bobojonova Q. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida texnologiya fanidan Davlat ta'lim standartini amaliyotga joriy etish. Metodik qo'llanma. O'zPFITI laboratoriyasi. T.: 2000.
13. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi Respublika ta'lim markazi. Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Texnologiya

fani tasviriy san'at, chizmachilik, musiqa madaniyati, jismoniy tarbiya. (1-9 sinflar). Toshkent. Original maket "Ma'rifat - Pres" 2020 y. 290 b.

14. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi Respublika ta'lim markazi. Toshkent-2010. Darsdan tashqari o'tkaziladigan fan to'garaklarining namunaviy rejalari.

15. Davlatov K.D., Chichkov V.A. O'quvchilarni kasb tanlashga yo'llash. - T.: O'qituvchi, 1978. - 144 b. Magzumov P.T. O'quvchilarni mehnatga va kasb tanlashga tayyorlash. T.: O'qituvchi, 1991. - 206 b

16. A.I.Varobev. «Mehnat politexnika ta'limi didaktikasi» -T.: O'qituvchi, 1988y, 356 b.

17. Davlatov K. Mehnat va kasb ta'lim tarbiyasidan amaliy mashg'ulotlar. – Toshkent: O'qituvchi, 1995. - 206 b.

18. Ishmuhammedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. -T.: O'qituvchi, 2003. -189 b.

19. M.Tilavova. Boshlang'ich sinf mehnat darslarini tashkil yetish texnologiyasi. www.ziyonet.uz:

20. <http://www.pedagog.uz/>

21. <http://www.ziyonet.uz/>

22. <http://www.istedod.uz/>

ILOVALAR

1-ilova

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARINING VIII-IX SINF O'QUVCHILARINI KASBGA YO'LLASH BO'YICHA ANKETA SO'ROVNOMASI

Sharifi _____ Ismi _____ Yoshi _____

Maktab № _____ Sinf _____ Sana _____

Hurmatli o'quvchi! Quyida Sizning e'tiboringizga kasb yoki hunar yo'nalishlari bo'yicha qiziqishingizni aniqlashga xizmat qiluvchi savollar havola etiladi. Savolda javob variantlari ko'rsatilgan bo'lsa, ma'qul deb topgan javobingizni tagiga chizing. Agarda javob variantlari berilmagan bo'lsa, javobingizni to'la yozing.

1. Sizni qaysi fan sohasi ko'proq qiziqtiradi:

a) tabiiy fanlar (matematika, fizika, kimyo, biologiya, mehnat (bu o'rinda qishloq xo'jaligi mehnati);

b) ijtimoiy fanlar (tarix, huquqiy va iqtisodiy bilimlar asoslari);

v) gumanitar (adabiyot, musiqa, tasviriy san'at, til o'rganishga oid fanlar (xususan, ona tili, ingliz tili)).

2. Siz qaysi fanlarni o'rganishni yoqtirasiz? _____

3. Qaysi fanlarni o'rganishni yoqtirmaysiz? _____

4. Quyidagi fanlar bo'yicha qanday baholarsi olasiz: ona tili _____, matematika (algebra) _____, tarix _____, fizika _____, kimyo _____, biologiya (botanika) _____, adabiyot _____, geometriya _____, chet tili _____, texnologiya fani _____, jismoniy tarbiya _____, geografiya _____, huquq _____, Odam va uning salomatligi _____, Vatan tuyg'usi _____, milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari _____, iqtisodiyot asoslari _____, rus tili _____, musiqa _____, chizmachilik _____ va boshqalar.

5. Bo'sh vaqtda qanday mashg'ulotlar bilan shug'ullanasiz? _____

6. Qanday jamoatchilik vazifalarini bajarasiz? _____

7. Qanday to'garak va seksiyalarda qatnashasiz? _____

8. Repititorlik asosida qo‘shimcha ta’lim olasizmi? _____
9. Uzingizda qanday xislatlarning mavjud bo‘lishini xohlardingiz? _____
10. Sizda qanday emotsional sifatlar ustun? _____
11. IX sinfni tugatgach, qanday yo‘nalishda ta’lim olishni hoqlaysiz: _____
- a) X sinfda o‘qishni davom ettirmoqchiman: _____
- b) akademik litsey, kasb-hunar maktabida ta’lim olmoqchiman: _____
12. Bu borada ota-onangiz qanday fikrdalar? _____
13. Qaysi akademik litsey va kasb-hunar maktabida o‘qimoqchisiz? (nomini to‘la yozing) _____
14. Agar X sinfda o‘qishni davom ettirsangiz qaysi yo‘nalishda bilim olmoqchisiz? _____
15. Ushbu yo‘nalishni nima maqsadda tanlayapsiz? _____
16. Yana qaysi kasbiy faoliyatlar Sizni ko‘proq qiziqtiradi? (Ularning nomlarini yozing) _____

2-ilova

QIZIQISHLAR XARITASI

Ko‘rsatma: Hurmatli o‘quvchilar, Sizlardan quyidagi savollarga javob berish so‘raladi. Har bir savol yuzasidan ijobiy munosabatingizni «+» va salbiy munosabatingizni «-» tarzida ifodalashingizni so‘raymiz.

Quyidagi fan yoki mutaxassislik yo‘nalishlari e’tiboringizni jalb etadimi?

Ularning asoslarini o‘rganishni xohlaysizmi?

1. Fizika va matematika darslari.
2. Ximiya darslari.
3. Ro‘zg‘orda qo‘llaniluvchi elektr va radiotexnika asboblari bilan tanishish.
4. Jahon mamlakatlari, ularning iqtisodiyoti va davlat tuzilmasi to‘g‘risidagi adabiyotlarni o‘qish.
5. Fan va texnika yutuqlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar bilan tanishish (chunonchi, «Texnika molodyoji», «Yuno’y texnik» oynomalar va boshqalarni o‘qish asosida).
6. Jahon klassik adabiyotlari bilan tanishish.
7. O‘simlik va hayvonot dunyosi borasidagima’lumotlar bilan tanishish.
8. Pedagog (tarbiyachi)lar faoliyati to‘g‘risidagi ma’lumotlar bilan tanishish.
9. Tarix darslari.
10. Tibbiyot sohasida qo‘lga kiritilgan yutuqlar bilan tanishish.
11. O‘zingiz o‘qiydigan, istiqomat qiladigan, ishlaydigan bino (xona)ning chiroyli ko‘rinishi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish.
12. Teatr, muzey va badiiy ko‘rgazmalarga borish.
13. Harbiy texnika borasidagi adabiyotlarni o‘qish.
14. Fizika yoki matematika sohasidagi kashfiyorlar xususidagi ilmiy-ommabop adabiyotlar bilan tanishish.
15. Kimyo sohasida erishilgan yutuqlar. bilan tanishish (ommaviy axborot vositalari orqali).
16. Radiotexnika sohasida erishilgan yutuqlar to‘g‘risidagi ilmiy-ommabop maqolalar bilan tanishib borish.

17. Foydali qazilmalar va yangi konlarni ochilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar bilan tanishish.
18. Zamonaviy texnika sohasida erishilgan yutuqlar bilan tanishish (ommaviy axborot vositalari orqali, texnika ko'rgazmalariga borish asosida).
19. Adabiy va tanqidiy maqolalarni o'qish.
20. Biologiya va botanikani o'rganish.
21. Qiyin masalalarni yechish, gapni to'g'ri yozish va hokazolarni tengdoshlariga tushuntirish.
22. Hozirgi kun voqealarini muhokama qilish.
23. Anatomiyani o'rganish.
24. Kartoteka tuzish va yuritish.
25. Opera va simfonik musiqani tinglash.
26. Harbiy texnika bilan tanishish.
27. Fizikaga doir tajribalarni o'tkazish.
28. Kimyoga doir tajribalarni o'tkazish, Kimyoviy reaksiyalar jarayonini kuzatish.
29. Ro'zg'ordagi elektr va radio asboblarni tuzatish.
30. Minerallar kolleksiyalarini to'plash.
31. Turli mexanizmlar (velosiped, tikuv mashinasi, soat va boshqalar)ni yig'ish va tuzatish.
32. Hikoya va she'rlar yozishni mashq qilish.
33. O'simlik va hayvonlarni parvarish qilish, ularning o'sishi va rivojlanishini kuzatish.
34. Vaqtni kichik bolalar bilan o'tkazish (ularga kitoblar o'qib, hikoyalar so'zlab berish, biror sohada yordamlashish).
35. Maktabda ijtimoiy tadbirlarini tashkil etish.
36. Shikastlangan joyni bog'lash, jarohatlangan holatlarda birinchi yordamni ko'rsatish.

37. Ekskursiya va sayohatlar vaqtida ovqatlanishni tashkil etish.
38. Deklomatsiya qilish, xorda qo'shiq aytish va sahnada chiqish.
39. Harbiy o'yinlar va yurishlarda qatnashish.
40. Matematika yoki fizika to'garaklarida shug'ullanish.
41. Kimyoviy eritmalarni tayyorlash hamda reaktivlarni to'g'ri saqlashga urinish.
42. Radioapparat hamda elektr asboblarni -konstruksiyalash.
43. Geografik va geologik ekspeditsiyalarda qatnashish.
44. Samolyot va planer modellarini yasash.
45. Chet tillarni o'rganish.
46. Jonli tabiatni kuzatish va o'z kuzatishlarini muntazam ravishda yozib borish.
47. Bolalar yetakchisi vazifasini bajarish.
48. Sinfda xalqaro ahvol to'g'risida axborot bilan so'zga chiqish.
49. Bemorlarni kuzatish borish va ularga yordam ko'rsatish.
50. Xaridorga o'ziga mos kiyimni do'kondan xarid qilishga yordam berish.
51. Musiqa asboblarni chalish, tasviriyl asarlarni yaratish yoki yog'ochga naqsh ishlash.
52. Sportning otish to'garagida shug'ullanish.
53. Fizika yoyei matematika olimpiadalarida qatnashish.
54. Kimyodan murakkab masalalarni yechish.
55. Aniq o'lchov asboblardan foydalanish va o'lchashga oid hisob-kitoblarni amalga oshirish.
56. Geologik va geografik xaritalarni tuzish.
57. Texnik chizma va sxemalar mohiyatini anglash.
58. So'z va iboralarning kelib chiqishini o'rganish.
59. Qishloq xo'jalik ekinlarini yetishtirishga doir tajriba ishlarini olib borish.

60. Ma'ruzalarni tayyorlash, so'zga chiqish.
61. Turli mamlakatlarning siyosiy tuzumi va ijtimoiy hayotini o'rganish.
62. Odam organizmi funksiyalari hamda kasalliklarning kelib chiqish sabablarini o'rganish.
63. Odamlarga turli maishiy xizmatlar ko'rsatish.
64. San'atning rivojlanish tarixini o'rganish.
65. Yirik janglar hamda atoqli sarkardalar hayoti va faoliyatini o'rganish.
66. Matematik qoida va formulalar mohiyatini bilishni talab etuvchi faoliyatni tashkil etish.
67. Kimyoviy mohiyatga ega masalalarni yechish.
68. Murakkab radio sxemalarning mohiyatini o'rganish.
69. Uzoq muddatli va murakkab ishlarni amalga oshirish.
70. Murakkab chizmalarni bajarish va loyihalar yaratish.
71. Lug'at, adabiy manba va bibliografik ma'lumotnomalar bilan ishlash.
72. O'simlik hamda hayvonlarni parvarish qilish, qishloq xo'jalik mashinalari va asboblariqa qarashni talab qiladigan topshiriqlarni bajarish.
73. Bolalarni o'rganish va tarbiyalash.
74. Maktabda kecha hmda konsertlar o'tkazishni yo'lga qo'yish.
75. Yaqin kishilarning sihat-salomatligi to'g'risida g'amxurlik qilish.
76. Jamoatchilik bilan doimiy muloqotda bo'lish.

Oquvchilarning «Texnologiya fani» fanida kompyuter texnikasi va axborot resurslaridan foydalanish imkoniyatlari va tayyorgarligini aniqlash bo'yicha

ANKETA

Maktab № _____

Sinf, F.I.O. _____

1. Texnologiya ta'limi faniga munosabatingiz _____

2. Texnologiya fani fani mavzulari o'qituvchi tomonidan qanday yoritiladi?

3. Texnologiya darslarida ko'proq nimalardan foydalaniladi?

4. Dars jarayonida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish uchun shart-sharoit etarli mi?

5. Texnologiya fani bo'yicha o'quv darsliklari etarli mi va ulardan qanday foydalanasiz?

6. YAshash joyingizda kompyuterdan foydalanish sharoiti yaratilgan mi?

7. Internet va ZioNet tarmoqlaridan foydalanishni bilasiz mi?

8. Internet elektron pochta xizmatlaridan foydalanasiz mi?

9. Kompyuter texnikasi yordamida texnik modellar yasashda foydalanish mumkin bo'lgan qanday dasturlarni bilasiz?

10. SHaxsiy fikrlaringizni yozing.

Anketa to'ldirilgan sana «__» _____ 20__ yil

MUNDARIJA

KIRISH.....	3-8
 I. BOB. UMUMIY O'RTA TA'LIMDA O'QUVCHILARNI KASB TANLASHGA YO'LLASH JARAYONINING NAZARIY ASOSLARI	
1.2. O'quvchilarni kasb tanlashga yo'llash jarayonining ilmiy metodik muammosini ishlanganlik darajasi.....	9-12
1.2. O'quvchilarning kasbiy layoqat, moyillik, qiziqish va qobiliyatlarini aniqlash metodlari.....	13-32
 II. BOB. UMUMIY O'RTA TA'LIMDA O'QUVCHILARNI KASB HUNARGA YO'NALTIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH METODIKASI	
2.1. Umumiy o'rta ta'limda o'quvchilarni kasb tanlashga yo'naltirishda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining ahamiyati.....	32-40
2.2. Texnologiya fani fanining kasb tanlashga yo'llash bo'limini o'qitish metodikasi.....	41-54
 IV. BOB. TAJRIBA-SINOV ISHLARINI TASHKIL ETISH VA UNING NATIJALARI TAHLILI	
3.1. Tajriba-sinov ishlarining mazmuni va o'tkazish metodikasi.....	55-56
3.2. Tajriba-sinov ishlarini natijalari va tahlili.....	56-59
XULOSA.....	60
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	61-62
ILOVALAR.....	63-69